

O‘ZBEK TILI

Ta'lim rus va qardosh tillarda olib boriladigan umumiy o'rta ta'lim maktablarining 10-sinf o'quvchilari uchun darslik

1-nashri

*O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan
tavsiya etilgan*

G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
TOSHKENT – 2020

UO'K 811.512.133(075.3)

KBK 81.2 O'zb – 922

O' 16

Mualliflar:

Lafasov Urak, Tolipova Fotima,
Nuriddinova Dildor, Yo'ldosheva Odina

Taqrizchilar:

Umirov Ixtiyor Ergashevich – O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi;

Odilova Saodat Abdurahimovna – Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti professori, filologiya fanlari doktori.

Ekspertlar:

Izbosarova Dinora – Toshkent shahar Sirg'ali tumani 104-maktab o'qituvchisi;
Karimjonova Gulnora – Toshkent shahar Shayxontohur tumani 320-maktab o'qituvchisi;

Aydarova Fotima – Toshkent shahar Sirg'ali tumani 300-IDUM o'qituvchisi.



– tinglang;



– gapiring;



– bilib oling;



– yozing;



– o'qing;



– muomala odobi;



– uyga vazifa.

Respublika maqsadli kitob jamg'armasi mablag'lari hisobidan chop etildi.

O'zbek tili. Ta'lim rus va qardosh tillarda olib boriladigan umumiy o'rta ta'lim maktablarining 10-sinf o'quvchilari uchun darslik. – T.: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2020 – 96 b.

UO'K 811.512.133(075.3)

KBK 81.2 O'zb – 922

ISBN 978-9943-6449-2-2

© G'afur G'ulom nomidagi
nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2020

1-MAVZU. VATANPARVARLIK (Gap bo'laklari)

1-DARS



1-topshiriq. Eslab qoling. Tanqidiy va tahliliy fikrlab munosabat bildiring.

Bundan bir necha yil muqaddam burgutlar haqidagi ilmiy-ommabop filmni o'zbek tiliga o'girishga to'g'ri keldi. Filmning nomini o'zbek tiliga o'girayotgan paytim biroz o'ylanib qoldim. Xayolimda "Ozod burgutlar parvozi", degan nom aylanib yuraverdi. "Burgutlar parvozi" desa ham bo'ladi, "Ozod burgutlar", deyish shartmi, axir burgutlarning ozod va erkin qush ekanini hamma biladi-ku, derdim o'zimga. Ammo "ozod", "burgut", "parvoz" degan so'zlar negadir bir-biriga hamohang, mos va munosib tuyilaverdi. Filmni shunday nomladik: "Ozod burgutlar parvozi". Biroz balandparvozdek ham tuyiladi bu nom. Ammo gap bu yerda filmga shunchaki nom qo'yishda emas, balki erk, ozodlik, shiddat va jur'at, yovqurlik timsoliga aylangan burgut haqida edi. Yosh tomoshabin farzandlarimiz qalbiga shunday shijoat va matonat, qat'iyat, 7 mardlik hamisha hamroh bo'lishini, olislarni ko'zlagan nigohlari o'tkir, qanotlari baquvvat bo'lishini istab, shunday nomlagandik. Xalqning ko'p asrlik orzu-umidlari, erk va ozodlik istagi ramzi – timsoliga aylangan bu qushlar. Bunday qanotlari bor yoshlarning parvozi baland bo'lishiga ishonamiz.



2-topshiriq. Savollarga javob bering.

1. Matnga sarlavha qo'ying. _____
2. Ozod, burgut, parvoz so'zlarining ma'nosini tushuntiring. _____

3. 7 mardlikni qanday tushunasiz?

4. Ozod burgutlarni nimaga qiyoslasa bo'ladi?



3-topshiriq. Matn asosida gaplarni davom ettiring.

1. Erk va ozodlik bu _____

2. Men burgut timsolida _____
3. Ozod burgutlar parvozi _____

1-mashq. Matndan ega va kesimni topib, jadvalni to'ldiring.

| | |
|-------|--|
| Ega | |
| Kesim | |



4-topshiriq. Vatan uchun jasorat ko'rsatganlardan kimlarni bilasiz? Qisqacha yozing.



Bilib oling! Gap tarkibida ma'lum so'roqqa javob bo'luvchi mustaqil so'z yoki so'zlar birikmasidan iborat birlik **gap bo'laklari** hisoblanadi. Masalan: Kecha o'quvchilar mashhur sportchilarni kutib olishdi.

2-mashq. Quyidagi jadvalda berilgan savollar asosida gaplar tuzing.

| Kim? | Kim bilan? | Qayerga? | Nima qildik? |
|------|------------|----------|--------------|
|------|------------|----------|--------------|

5-topshiriq. Dialogdagi ajratilgan so'zlar o'rniga quyida berilgan kechirim so'rash va unga javob berishda ishlatiladigan so'zlarni qo'llab qisqa dialoglar tuzing.

- **Kechirasiz**, kech qoldim.
- Avtobus kutishga to'g'ri keldi.
- **Hechqisi yo'q.** Biz bilan birga bo'lishingiz mumkin.
- Kechirasiz, uzr.
- Juda xijolatdaman, afsus.
- Juda afsusdaman.
- Agar qarshi bo'lmasangiz.
- Hechqisi yo'q, xijolat bo'lmang.
- Yaxshi, xavotirlanmang.



6-topshiriq. Toshkent shahri va 12 ta viloyat nomini alfavit tartibida yozing.

| | |
|----|-------------------------------|
| 1 | Qoraqalpogʻiston Respublikasi |
| 2 | |
| 3 | |
| 4 | |
| 5 | |
| 6 | |
| 7 | |
| 8 | |
| 9 | |
| 10 | |
| 11 | |
| 12 | |
| 13 | |
| 14 | |



“Jasorat” deganda nimani tushunasiz? Misollar keltiring.

2-DARS



7-topshiriq. Eslab qoling va munosabat bildiring.

Bir kishining tinchligi jamiyat tinchligining bir qismidir. Vatan himoyasida faqat harbiy kishilar emas, balki shu zaminda yashayotgan barcha fuqarolar – oʻqituvchi yoki shifokor boʻladimi, tadbirkor yoxud bogʻcha tarbiyachisi boʻladimi, qayerda boʻlmasin oʻz Vatanini himoya qilishi kerak. Buyuk ajdodlarimiz yurt himoyasi yoʻlida shaʼni, or-u nomusini, imonini oʻrtaga qoʻyib, yovga qarshi kurashgan. Vatan uchun kurashgan Shermuhammad Ashirov 1975-yil 23-yanvarda Toshkent viloyati Yangiyoʻl tumani Xalqobod qoʻrgʻonida tugʻilgan. Jizzax oliy harbiy aviatsiya bilim yurtining ilk bitiruvchilaridan biri. 2000-

Yil Surxondaryo viloyatining Sariosiyo tumanida jangovar harakatlarda halok bo'lgan. II darajali "Shon-sharaf" ordeni bilan taqdirlangan. Birinchi o'qituvchisi xotiralaridan: "A'lochi o'quvchilarimdan edi. U bilan hamisha faxrlanaman. Og'ir, vazmin, mehribon o'quvchim bir nimani maqsad qilsa, shunga erishmasdan qo'ymasdi. Haqiqiy vatanparvar edi, yolg'onni eshitsu, chidab turolmasdi, haqiqat uchun jon kuydirardi hamisha. Maktabga ishga kelganimda ilk bor u o'qiyotgan sinfga rahbarlik qilganman. Hozir ham ko'z oldimda turibdi, to'rtinchi partada o'tirardi. Bir kuni, bolalar, qani, his-hayajon gapga kim misol keltiradi, desam, u qo'l ko'tarib: "Yashasin 8-mart va onajonlarimiz!" – dedi baralla. Hamma kulib, qarsak chalib yubordi".

 **8-topshiriq. Savollarga javob bering.**

1. Matnga sarlavha qo'ying. _____
2. Vatan uchun kimlar jon fido qilgan? _____
3. Vatanparvarlik qanday fazilat? _____
4. Kimni vatanparvar deb o'ylaysiz? _____

 **9-topshiriq. Quyidagi savollar yordamida o'zaro bahslashing.**

1. Vatan uchun jasorat ko'rsatgan qahramonga qanday yodgorliklar o'rnatilgan?
2. "Tinch hayotning qadriga yetish" tushunchasiga munosabat bildiring.
3. Tinchlik deganda ko'z oldingizda nimalar namoyon bo'ladi?
4. Tasavvur qiling. Vatan uchun fidoyi insonlarda qanday fazilatlar mujassam bo'ladi?
5. Tinch, osoyishta davrda qanday jasorat ko'rsatish mumkin?

 **10-topshiriq. Jadvalda berilgan so'zlarni o'zaro qiyoslab izoh yozing.**

| Jasorat | Qo'rqqoqlik |
|---------|-------------|
| — | — |
| — | — |



3-mashq. Matn asosida nuqtalar o'rniga ega va kesimning mosini qo'yib, jadvalni to'ldiring.

| | |
|---|---|
| U bilan hamisha | qo'yilgan, o'rnatilgan, faxrlanaman, joylashgan |
| Minglab hayotdan ko'z yumishgan. | keksalar, jajji bolachalar, san'atkorlar, yozuvchilar |
| Bu holatni tasavvur qilishning o'zi | sharafdir, dahshatdir, quvonarlidir |
| Urush tufayli butun jahonda qancha kishining qurigan. | umri, yostig'i, yoshligi |



4-mashq. Nuqtalar o'rniga tushirib qoldirilgan gapning egasini qo'yib yozing.

So'zlar: *U, Shermuhammad, uni, kursdoshimizning, uning, Erkin Vohidov, u, Pirimqul Qodirov.*

Shermuhammadning kursdoshi va yaqin do'sti, podpolkovnik Sherali Choriyev xotiralari: "..... mard yigit edi, – mening ishonchli, suyangan do'stim edi. Otryadimiz bir joyga to'planganda, bizga she'rlar o'qib berardi. insoniy fazilatlar uchun juda hurmat qilardik. Xushchaqchaq, do'stlariga yordam qo'lini cho'zadigan, bilimga chanqoq, chin ma'nodagi vatanparvar bu yuksak bilimi va tug'ma iste'dodini hozirgacha qadrlayman, yoshlarga o'rnak qilib ko'rsataman. Kitoblari juda ko'p edi. shaxsiy kutubxonasi havo navigatsiyasi, aerodinamika, uchish qoidalari to'g'risidagi darsliklar, , kabi shoir va yozuvchilarning kitoblaridan iborat edi. Favqulodda iqtidori, jiddiyligi, tirishqoqligi bilan yo'riqchi ofitserlarning maqtovlariga ko'p bor sazovor bo'lgan".



11-topshiriq. Berilgan tayanch so'zlar ishtirokida gaplar tuzing. Tuzgan gaplaringizni qiyosiy tahlil qiling.

| | |
|--------------|---------------|
| Mard | nomard |
| Jasur | qo'rqoq |
| Mas'uliyatli | mas'uliyatsiz |

Eslab qoling va unga amal qiling!

Suhbat odobi

Atrofimizdagi insonlar bilan iliq va samimiy munosabat o'rnatishni o'rganishimiz uchun o'zlashtirishimiz kerak bo'lgan 8 ta qoida mavjud.

1. Suhbatdoshining ko'ziga qaray olish.
2. Tinglay bilish.
3. Savol berish.
4. O'zingizga bo'lgan ishonchni namoyon eta olish.
5. Hazil-mutoyibaga moyilligini ko'rsata olish.
6. Haqiqatgo'y bo'lish.
7. Insonlarni sevish va hurmat qilish.
8. Odil bo'lish.

12-topshiriq. Yuqorida berilgan 8 qoidani izohlang.

1. «Hazil-mutoyibaga moyilligini ko'rsata olish» deganda nimani tushunasiz? Misollar keltiring.
2. Yuqorida berilgan 8 qoidadan qaysilari sizda mavjud?



Vatanparvarlik deganda nimani tushunasiz? Fikringizni yozma bayon qiling.

1-DARS

2-MAVZU. OILAM – FAXRIM

(Bosh bo'laklar)



1-topshiriq. Eslab qoling va topshiriqlarni bajaring.

Oila, hayotimizda eng aziz dargoh hisoblanadi. Agar oila tinch bo'lsa, o'zimizni yaxshi, baxtli his qilamiz, o'qishda, ishda rivojlanish bo'ladi. Hayotimizning baxtga burkanishi yoki zaharga aylanishi oilaviy muhitga bog'liq.

Bir oiladagi notinchlik ota-ona, buvi-bobo, qarindosh-urug', mahalla-ko'nying xotirjamligini buzadi. Oilaga e'tiborsizlik, mas'uliyatni his qilmaslik insoniylikdan ancha yiroq holatlardir. Atrofimizda insondan boshqa jonivorlar ham juft-juft, gala-gala, to'da bo'lib yashayapti. Masalan,

turnalar o'z galasidagi bittagina turnani ham yolg'iz tashlab ketishmaydi. Palaponlarini esa, aslo!

...O'z to'pidan ajratib qo'yilgan chumoli har qancha qulay sharoitda bo'lsa ham sheriklarisiz uzoqqa borolmas ekan. Sheriklari — uning oilasi. Oila mustahkam emas ekan, inson ham qancha zo'r bo'lsa-da, yuksalishi, taraqqiy etishi qiyin.

1. Matnga sarlavha qo'ying.
2. Oila mustahkamligini qanday tushunasiz? 3 ta sababini ko'rsating.
3. Gapni davom ettiring va nima uchun, degan savolga javob bering.

Turnalar o'z galasidagi _____

 **2-topshiriq.** Tez bajarish. 10 soniyada matndagi insoniylikdan yiroq holatlar jumlasini topib, hayotiy misollar keltiring.

 **Bilib oling!** Bosh bo'laklar gapning asosini tashkil qilib, harakatni va uning bajaruvchisini ko'rsatadi. Ular: **ega** va **kesim**. **Masalan:** Shoir she'r o'qidi. Toshkent go'zal shahar.

 **1-mashq.** Berilgan gaplarning ega va kesimini ajratib jadvalga tushiring.

1. Yurt – tinch, sen – tinch.
2. Qushlar sayrayapti.
3. Gullar ochildi.
4. Jannat – onalar oyog'i ostida.
5. Birlashgan – o'zar, birlashmagan – to'zar.
6. Oltin olma, duo ol.
7. Kitob – bilim manbayi.
8. Otang – davlating, onang – jannating.
9. Osmon – musaffo.
10. Kitob o'qiyapman.

| Ega | Kesim |
|-----|-------|
| | |

 **2-mashq.** Namunada berilgan so'roq gaplarga o'xshash gaplar tuzing. Quyida berilgan so'zlardan mosini tanlab, savollarga javob bering.

Namuna:

- Sizdan bir narsa so'rasam maylimi?
- Sizga savol bersam mumkinmi?
- Derazani ochishga ruxsat berasizmi?
- Kitobingizni ertaga olib kelsam bo'ladimi?

- Albatta.
- Mayli.
- Yo‘q, kechirasiz, mumkin emas.
- Ha, bo‘laveradi.
- Yo‘q, bo‘lmaydi.



O‘zini tekshirish. Oilangiz a‘zolarini quyidagi tartibda yozing.

- A) Yoshiga ko‘ra, tartib bilan: _____
- B) Ismiga ko‘ra, alifbo tartibida: _____
- C) Oila a‘zolaringizdan biriga tavsif bering.

2-DARS



3-topshiriq. Namunalar yordamida o‘z oilangiz, kelgusi rejalaringiz haqida suhbatlashing.

| | |
|--|--|
| <p>Bizning oilamiz 6 kishidan iborat. Buvam, buvim, otam, onam, men va singlim. Oilamiz a‘zolari bir-biriga mehribon. Otam bir tashkilotda rahbar. Oilamiz iqtisodiga bog‘liq barcha yumushlar bilan, asosan, otam shug‘ullanadi. Onam maktabda o‘qituvchi. Oilada har birimizning o‘z vazifamiz bor. Men 10-sinfda, singlim esa 6-sinfda o‘qiydi. Men darsdan tashqari qo‘shimcha mashg‘ulotlarga qatnayman.</p> <p>Kelgusida bo‘lmoqchiman.</p> | <p>Oilamiz kichik – 3 kishidan iborat. Otam san‘atkor. Onam esa tadbirkor. Avval to‘qimachilik sohasida kichik bir sex bilan ish boshlagan edi. Hozirda esa katta bir korxonani boshqaradi. O‘tgan yili onam chet davlatlar ish tajribasini o‘rganib, korxonaga ancha yangiliklar kiritdi. Davlatga foyda keltirgani uchun davlatimiz tomonidan yuksak mukofot bilan taqdirlandi. Men 10-sinfda o‘qiymen. Kelgusida kasbini egallamoqchiman. Buning uchun.....</p> |
|--|--|



3-mashq. So‘zlarni o‘z o‘rniga qo‘yib, gaplar hosil qiling. Bunda gap bo‘laklarining qo‘llanishiga e‘tibor bering.

1. Biz, yangi, tomosha qildik, filmni. _____
2. Usti, ichi, yaltiroq, qaltiroq. _____

3. Mo'tabar chiqib ketdi, sekin, yopib, eshikni. _____
4. O'sha, edi, sovuq, qattiq, kuni. _____
5. Shahnoza hayajon, o'qidi, shu kitobni, bilan. _____
6. Hammasini, aytib, kerak, berishing. _____



4-mashq. *Oilamiz an'analari, o'zaro ishonch, omad o'zi keladi* kabi so'z birikmalari asosida 20 soniyada gaplar tuzing.



4-topshiriq. *"Men kelgusida ... bo'lmoqchiman"* mavzusida quyidagi reja asosida 10 daqiqada kichik matn yarating.

A. Matn rejasi:

- ... kasbini tanlashdan maqsad.
- Buning uchun nima qilish kerak?
- Tanlangan kasbning oilaga va jamiyatga foydasi.
- Kelgusida ... oilam bo'lishini orzu qilaman.

B. Tuzgan matningizdagi bosh bo'laklarni aniqlab, jadvalga tushiring.

| Ega | Kesim |
|-----|-------|
| | |
| | |

5-topshiriq. Kattalarga murojaat qilishdagi xatolarni aniqlang.

1. Onajon, kechirasiz, eshitmay qoldim gapingizni qaytarib yuboring.
2. Dada, buncha gapni cho'zdingiz, maqsadga o'ting.
3. Aka onam to'g'ri aytyaptilar, fikrlarini bo'lmang.
4. Shoshib turibman, sizni ma'ruzangizni eshitishga vaqtim yo'q.
5. Nargiza xola gapiraveradi-da.
6. Dadajon, tushlik qildingizmi?
7. Boring, ishingizni qiling.
8. Yordamlashib yuboraymi?
9. Kerak bo'lsa, opamning o'zi aytsin.
10. Siz bilan birga borsam maylimi?



Oilangizda kattalarga qanday murojaat qilinadi? Dialog tuzing.

1-DARS

3-MAVZU. O'RGANISHDAN TO'XTAMANG (Ega)



1-topshiriq. Matni o'qing va topshiriqlarni bajaring.

Avtotyuning sohasida Miraziz Mirsaidov «Eastline Garage» firmasining hammuassisi hisoblanadi, u biznes sherigi bilan Moskvada tyuning atelye ochgan. U o'z tajribasi bilan o'rtoqlashdi. Otam hunarni o'rgatmoqchi bo'lganida xohlamagan vaqtlarim bo'lgan. Moskvaga 2008-yilda o'qish niyatida kelganman. Rus maktabida o'qiganim uchun oliy o'quv yurtiga birinchi yil kira olmadim. Ingliz tilini o'rganishni boshladim. Bolaligidan avtomobillarning har xil turlariga qiziqaman. Rossiyaning MTV telekanalida «Тачки на прокачки» ko'rsatuvi bo'lardi. Unda mashinaning saloni, texnik ko'rsatkichlari, motor va boshqa butlovchi qismlarini o'zgartirishardi. Menda ham shunga qiziqish bo'lgan. Aynan, avtoatelye ochishni maqsad qilganligimning sababi – bu soha, ya'ni teri, charm bilan ishlash otabobomdan meros hisoblanadi. Bobom Asaka shahrida poyabzal ustasi bo'lgan, undan otamga o'tgan. Otamdan men o'rganganman. Men uchinchi-to'rtinchi avlod kosibman. Dadamning poyabzal ishlab chiqarish sexi bo'lardi yoshligimizda. Hammasini ko'rib katta bo'ldim. 2013-yil Moskvaga o'qishga kirish niyatida qaytib keldim. Orada sherigim Temur bilan tanishib qoldim. Men charm bilan qanday ishlash texnologiyasini, tikuv usullarini bilaman. Unda ham avtoatelye ochish g'oyasi bo'lgan. Ammo hunarmand sherigi bo'lmagani uchun g'oyasini amalga oshira olmagan. Salon bo'yicha katta usta o'zimman. Chunki, ilk ikki yil 3 x 6 ga garajimiz bor edi. Men, Temur va kompyuter bo'yicha bir sherigimiz bo'lardi, shu uchovimiz ishlaganmiz. Internetda o'tirib o'rgandim, tajriba oshirdim. O'zimizga ishonch hosil bo'lgandan so'ng, shogird olib ishni kengaytirishga qaror qildik. Bugungi kunda jamoamizda 7 kishi ishlayapmiz. 10 kishidan 3 nafari o'z atelyelarini ochishga muvaffaq bo'lishdi.

1. Matnga sarlavha qo'ying.
2. Maqsadim – avtoatelye ochish. 3 ta sababini ko'rsating.
3. Temurning qanday g'oyasi bor edi? Tushuntiring.
4. Kelgusidagi g'oyalaringiz haqida qisqacha yozing.

 **2-topshiriq.** Quyidagi savollar asosida suhbatlashing.

1. Qachon hech qanday o'sish, taraqqiyot bo'lmaydi?
2. O'z maqsadiga erishish deganda nimani tushunasiz, misollar keltiring.
3. O'z maqsadingiz va g'oyalaringiz haqida o'rtoqlashganmisiz?
4. Muvaffaqiyatlarga erishib mashhur bo'layotgan yoshlarga misollar keltiring.

 **Bilib oling!** Ega harakatning bajaruvchisini bildirib, asosan *kim?*, *nima?*, *qayer?* so'roqlariga javob bo'ladi. Ega doimo bosh kelishik shaklida bo'ladi. Egalik va ko'plik shakllarini qabul qiladi. Masalan: Madina keldi. Kitob o'qildi. Shahrizabz – yashil shahar.

 **1-mashq.** Berilgan so'zlardan foydalanib, gaplarning egasini qo'yib ko'chiring.

So'zlar: *qars, ikkalasi, yaxshi, Mastura, yomon, kamtarlik, aqlli, aqlsiz*

1. _____ Mashrabning ko'ziga qadalib qaradi.
2. _____ o'zini ayblar, _____ – do'stini.
3. _____ kishiga zeb-u ziynatdir.
4. _____ qand yedirar, _____ pand yedirar.
5. _____ ham chiqib ketishdi.
6. _____ ikki qo'ldan chiqadi.

 **2-mashq.** Gapning egasini topib, so'rog'i bilan birga yozing.

1. Odam ko'p, ish kam. Odam (kim?) ko'p, ish (nima?) kam.
2. Atrof jim-jit. _____
3. Shamol gul hidlarini atrofga taratdi. _____
4. Ikkovimiz dala aylandik. _____
5. Havo mayin, osmon tip-tiniq. _____
6. O'qigan o'zar, o'qimagan to'zar. _____

 **3-topshiriq.** Dialogni o'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlar o'rniga quyida berilgan so'zlardan qo'yib, o'xshash dialog tuzing.

Biz bilan ertaga suzishga borasizmi?

Yo'q, rahmat. Men **kinoga tushishni** ma'qul ko'raman.

do'kondan biron nima xarid qilish
sayr qilish
tog'ga chiqish
shaxmat o'ynash
teatrqa borish
musiqa eshitish



“Men ... bilishni xohlayman”. O‘z qiziqishlaringiz haqida matn tuzing.

2-DARS



4-topshiriq. Eslab qoling va munosabat bildiring.

Aksariyat yoshlar bo'sh vaqtda o'z ustida ishlash, rivojlanish o'rniga ko'ngilxushlik qilishni ma'qul ko'radi. Bir tomondan buning ajablanarli joyi yo'q – o'qish qiyin-da. Yordam so'rash, o'z ishida rivojlanish, ketma-ket muvaffaqiyatsizlikka uchrashning qizig'i yo'q. Takrorlash zerikarli, u ko'plarni charchatadi, shuning uchun biror sohani mukammal egallagan odamlar kamchilikni tashkil qiladi. Biror nimani o'rganishni boshlash oson bo'lmaydi, biroq yodingizda bo'lsin:

- har kuni mutolaaga vaqt ajratganingizda millionlab odamlar qo'liga kitob olmagan bo'ladi;
- har kuni ertalab biror nima ustida ishlash uchun turganingizda boshqalar uxlashda davom etayotgan bo'ladi;
- har kuni oldinga qarab harakatlanganingizda millionlab odamlar yengiladi.



3-mashq. Nuqtalar o'rniga qavs ichidagi so'zlardan mosini qo'yib, gaplarni ko'chiring.

1. Iqtidorli(insonlar, olimlar, yoshlar) – kelajagimiz tayanchi.
2. ...va ... (sog'liq, tinchlik, ozodlik, barqarorlik) bo'lmasa, ilm-fan sohasida o'sish, taraqqiyot bo'lmaydi.
3. Har doim (o'quvchilar, odamlar, bolalar) o'qib-o'rganishni, har tomonlama rivojlanishni istaydi.
4. Har bir (o'qituvchi, ota-ona, yoshlar) farzandlarini bilimli, iqtidorli bo'lishi uchun kecha-yu kunduz mehnat qiladi.

5-topshiriq. O'qing, tajriba orttiring, xato qiling, nima ish beradi, nima esa yo'q – aniqlang. Sekin-asta sur'atni oshirib, o'z maqsadingizga yaqinlashasiz.

1. Hamma kabi bo'lish o'rniga muvaffaqiyatni tanlang.
2. Hasad qilishning o'rniga o'z ustingizda ishleng.
3. Boshqalar emas, o'zingiz xohlagan narsani tanlang.

6-topshiriq. Sanjarning xatosini aniqlang va munosabat bildiring.

Sanjar juda chaqqon bola. U hamma ishni tez bajarishga harakat qiladi. Biroq, tartibsiz bo'lgani uchun pand yeydi. Sanjar kitoblarini kiyim javoniga, kiyimlarini kitob javoniga joyladi. Tushlik qilayotib dars tayyorladi. O'zbek tili fanidan uyga berilgan vazifani matematika daftariga yozdi. Matematikadan masalani lug'at daftariga ko'chirdi.

Bugun ularda o'zbek tili, tarix, geografiya darsi bo'ldi. O'zbek tili darsida Sanjar uy vazifasini topshirmagani uchun tanbeh eshitdi.

Ayting-chi, Sanjar nima uchun uyga berilgan vazifani topshira olmadi? Sanjarning 3 ta xatosini ko'rsating.

1. _____
2. _____
3. _____

Siz ham shunday holatga tushganmisiz?

Ruxsat so'rash odobi

- Mumkinmi?
- Marhamat.
- Kechirasiz, sizdan bir narsa so'ramoqchiman...
- Biroz vaqtingizni olsam maylimi?
- So'rasam...
- Aytsam maylimi?
- Kirsam...
- Yozsam...
- Vaqtingiz bo'lsa...



«...ni o'rganmoqchiman» mavzusida istaklaringizni yozing.

1-DARS

4-MAVZU. DO'STLIKNI QADRLASH (Kesim)



1-topshiriq. Eslab qoling va topshiriqlarni bajaring.

Ey farzand, tirik kishi, albatta, do'stsiz bo'lmaydi. Kim bilan do'st tutinsang ham do'stlik qoidalariga rioya qil. Har kim do'stini esiga olmasa, do'sti ham uni esiga olmaydi. Kimning do'sti ko'p bo'lsa, ayblari yopiladi. Yangi do'st topsang, eski do'stlaringdan yuz o'girma. Yaxshi do'st kishiga ulug' xazinadir. Ba'zi odamlar sen bilan yarim do'st bo'ladilar, ular bilan ham yaxshi muomalada bo'l. Yaxshilik ko'rsalar sekin-sekin chin do'stga aylanadilar. Do'stingning do'stlarini o'z do'stlaringdan, dushmanlarini dushmanlaringdan deb hisobla. Do'stingga dushman, dushmaningga do'st bo'lgan kishi bilan, aqlsiz bilan aslo do'st bo'lma. Aqlsiz, nodon do'st aqlli dushmandan yomondir.

1. Matnga sarlavha qo'ying.
2. Do'stingizga ta'rif bering.
3. *Aqlsiz, nodon do'st aqlli dushmandan yomondir* – nima uchun? 3 ta sababini ko'rsating.

A) _____

B) _____

C) _____



2-topshiriq. Matnni tinglash jarayonida berilgan gaplardagi nuqtalar o'rnini to'ldiring.

Kim bilan do'st tutinsang ham ... qoidalariga rioya qil.

Yangi do'st topsang, yuz o'girma.

Yaxshi do'st kishiga ulug'

.... ko'rsalar sekin-sekin chin do'stga aylanadilar.

Do'stingning do'stlarini, dushmanlarinidan deb hisobla.

Aqlsiz, nodon do'stdan yomondir.



3-topshiriq. "Do'stingga dushman, dushmaningga do'st bo'lgan kishi bilan, aqlsiz bilan aslo do'st bo'lma" gapini tushuntirib bering.



Kesim gapning mazmuniy markazi hisoblanib, egani ko'rsatadi. Uning 2 xil turi bor. 1. **Fe'l**-kesim 2. **Ot**-kesim

Shaxs-son ma'nolarini ifodalab (u)nima qildi?, (u)nima qiladi?, (u) nima qilyapti?, (u) kim?, (u) nima?, (u) qayer?, (u) qancha?, (u) qanday?, (u) qaysi? so'roqlariga javob bo'luvchi mustaqil so'zlar gapda kesim vazifasini bajaradi.

Kesim yakka holda gap bo'la oladi. Masalan: *Yaxshimisiz? Kelayapti.*



1-mashq. Gaplarning kesimini aniqlab, savolini qo'ying.

1. Otam katta bir tashkilotni boshqaradi. _____
2. Men do'stimdan ko'p narsa o'rgandim. _____
3. Opam akamning gapini eshitmadi. _____
4. Tong otgach, yo'lga tushdik. _____
5. Yolg'on so'z kishining qadrini tushiradi. _____
6. Mehnat qancha qiyin bo'lsa, noni shuncha shirin bo'ladi. _____
7. Suhbat rosa qiziqarli bo'ldi. _____



2-mashq. Gaplarning ega va kesimini aniqlang.

1. Qushlar gala-gala bo'lib uchishdan avval jam bo'ladilar. _____
2. Men elimning yuragida yashayman. _____
3. Mard to'g'ri va haq gapni gapiradi. _____
4. Mening eng yaqin do'stim – sensan. _____
5. Hunarlining qo'li gul. _____
6. Hammadan ham yaxshi narsa – ahillik. _____
7. Shoshilgan ishning pushaymoni ko'p. _____

4-topshiriq. Ajratib ko'rsatilgan so'zlar o'rniga quyida berilgan so'z birikmalarini qo'yib, dialog tuzing.

– Akmal **tarixiy kitoblarni o'qishni** yoqtiradimi?

– Ha. (Yo'q) chunki

Do'stlariga yordam berishni

Onasiga yordam berishni

Gazetalarni ko'rib chiqishni

Bog'da ishlashni

Telefonda o'yin o'ynashni



5-topshiriq. Matnlarni o'qing va munosabat bildiring.

Fotima bilan Zuhra opa-singil. Ular bir sinfda o'qishadi. Matematika darsida Zuhra telefon o'ynab o'tirdi va yangi mavzuni tushunolmay qoldi. Uyga kelgach, Fotima uyga berilgan vazifani bir zumda bajarib qo'ydi. Zuhra har qancha urinmasin, bajara olmadi. Shunda u Fotimadan uyga berilgan vazifani ko'chirishga berib turishini so'radi. Fotima bunga rozi bo'lmadi. U Zuhraga yangi mavzuni tushuntirib berdi. Zuhra baribir Fotimadan ranjidi. Ertasi kuni o'qituvchi Zuhrani doskaga chiqarib kechagi mavzuni tushuntirib berishini so'radi. Zuhra darrov javob berdi va Fotimaga qarab kulib qo'ydi.

Botir bilan Bahrom yaqin do'st. Ular bir partada o'tirishadi. Botir har doim do'stiga yordam beradi. O'qituvchi rus tili fanidan o'quvchilarga o'zining qiziqishlari haqida matn tuzib kelishni topshirdi. Har safargidek Bahrom uy vazifasini Botirdan ko'chirib oldi. Darsda o'qituvchi Bahromning ishini maqtab, unga "a'lo" baho qo'ydi. Navbat Botirga kelganda u uy vazifasini bajara olmaganini aytdi va o'qituvchidan tanbeh eshitdi.

Kim to'g'ri ish qildi? Har ikkala matn bo'yicha to'g'ri yoki noto'g'riligiga 3 tadan sabab ko'rsating.

To'g'ri

- 1.
- 2.

Noto'g'ri

- 1.
- 2.



6-topshiriq. Jadvalni to'ldiring.

| Qanday bo'lishi kerak? | Nima uchun? | Shaxsiy fikringiz |
|--|---|-------------------|
| <p>Men do'stimni juda hurmat qilaman. Haqiqiy do'st shunday bo'lishi kerak.</p> | <p>Har doim yonimda bo'lishi uchun. Uy vazifalarini doim ko'chirtirishi uchun. Mening hamma gapimni to'g'ri deb tasdiqlab turishi uchun. Men haqimdagi boshqalarning fikrlarini doim menga yetkazib turishi uchun. Kerak bo'lganda men uchun yolg'on gapirishi uchun.</p> | |



7-topshiriq. Eslab qoling va topshiriqlarni bajaring.

Alisher Navoiyning Husayn Boyqaro va Pahlavon Muhammad ismli do'stlari bor edi. Kunlarning birida Pahlavon Muhammad kichik bir gunohi tufayli hukmdor Sulton Husayn Boyqaroning qattiq qahriga uchrabdi. Voqea bunday bo'lgan ekan. Sulton Husayn g'azablanib turgan payti edi. Shohning va Pahlavonning dushmanlari Pahlavon Muhammad gunoh ish qilganini aytishibdi. Husayn Boyqaro o'ylab o'tirmay:

– Pahlavon Muhammadning soqol-mo'ylovini qirib tashlang, kaltadum libos kiydirib, ko'cha-ko'yda sazoyi qilinglar, – deb buyruq beribdi. Pahlavonga shunday jazo belgilanganini Navoiyga yetkazishibdi. Pahlavon Muhammad mamlakatdagi barcha pahlavonlarning boshlig'i edi. Ustozga nisbatan bunday sharmandalik pahlavonlarni g'azablantirib, mamlakatda qo'zg'olon boshlanishi muqarrar edi. Bunda shohning hayoti ham xavf ostida qolar edi. Alisher Navoiy ularni bunday xavfdan qutqarish uchun tezda Husayn Boyqaro huzuriga borib shunday dedi:

– Sultonim, sizga ma'lumki, Pahlavon Muhammad ikkimiz yoshligimizdan bir xil kiyinamiz, birga soqol-mo'ylov qo'yib, do'st-birodar bo'lib yuramiz. U boshqa kiyinib, men boshqa kiyinib yursam, o'rtadagi ahdimiz buziladi. Buyursangiz, mening ham soqol-mo'ylovimni qirsinlar, menga ham Pahlavon Muhammad kabi kalta libos kiydirib, do'stim bilan birga ko'cha aylantirsinlar. Alisher Navoiyning do'stiga va Vataniga bo'lgan sadoqatini ko'rgan Husayn Boyqaro g'azab otidan tushibdi-da:

– Pahlavon Muhammadning gunohidan o'tdim, jazo qoldirilsin, – deb buyuribdi. Alisher Navoiyning aqlli tadbiri bilan do'stlari va mamlakat falokatdan qutulibdi.

(*“Asotirlar va rivoyatlar” risolasidan*)

1. Matnga sarlavha qo'ying.
2. Birinchi xatboshidagi gaplarni o'qib, egasini ko'rsating.



3-mashq. Matndagi noto'g'ri deb bilgan fikrlarni tuzatib yozing va kesimning tagiga chizing.

Do'stlarning kam bo'lgani yaxshi. Haqiqiy do'stlar bilan birga bo'lganda o'zingizni dadil tutasiz. Qiziqishi, intilishi sizniki bilan bir xil bo'lganlar haqiqiy do'st hisoblanmaydi. U do'sti uchun hech narsani ayamaydi.

Har doim hamma gapingni tushunadi. Hech qachon yolg'on gapirmaydi. Sizga tanbeh bermaydi. Faqat sizni maqtaydi. Uyga berilgan vazifalarni ko'chirtiradi. Siz haqingizdagi boshqalarning fikrlarini sizga yetkazib turadi. Agar do'stingiz shunday bo'lsa, uni qadrlang.

 **8-topshiriq.** Do'stlik haqidagi maqollarning davomini aniqlab, jadvalni to'ldiring.

Do'st xatoyingni to'g'rilar; yurt boyligi; Odamniki – do'stlikda; Do'st chaqirsa qolma; Odam – do'stlari bilan; Do'sti ko'p – mingni; Dushman suyunar; Do'stning urgani yaxshi; Do'stsiz qolar; Do'stingning aybini tuzat; Ko'ngli yaqin.

| | |
|-----------------------------|--|
| Aybsiz do'st izlagan | |
| Bilagi zo'r birni yiqar, | |
| Burgut kuchi – oyog'ida, | |
| Daraxt– ildizi bilan, | |
| Dushman siringni o'g'irlar, | |
| Dushman chaqirsa borma, | |
| Dushmanning suyganidan | |
| Do'st bo'lsang, | |
| Do'st kuyunar, | |
| Do'st uzoqda bo'lsa ham, | |
| Xalq do'stligi – | |

 **4-mashq.** Savollarga javob bering. Javobingizda ega va kesimni ajratib ko'rsating.

Namuna: 9-may qanday bayram? 9-may – Xotira va qadrlash kuni.

1. Alisher Navoiy kim? _____
2. "Tib qonunllari"ni kim yozgan? _____
3. Biologiya nima? _____
4. Atmosfera nima? _____
5. Beruniy kim? _____
6. Kvadrat nima? _____
7. Gerbariy nima? _____

Salomlashish odobi

- Assalomu alaykum. – Va alaykum assalom.
- Salom, yaxshimisiz? – Rahmat, o'zingiz-chi?
- O'qishlaring(ishlaring) yaxshimi?
- Hammasi joyida.
- Qalaysan? – Bo'ladi.
- O'zingdan so'rasak.



9-topshiriq. Dialogdagi kamchiliklarni aniqlang. Do'stingiz bilan salomlashish odobiga rioya qilgan holda suhbatlashing.

10-topshiriq. O'zingizni sinab ko'ring.

Savollar:

Pahlavon Muhammad kim? Podsho nima uchun uni jazolashga buyurdi? 3 ta sababini ko'rsating.

1. _____
2. _____
3. _____

Do'stlikning qadriga yetish deganda nimani tushunasiz?

Misollar keltiring.

1. _____
2. _____
3. _____

Berilgan gaplarning kerakli o'rinlariga tire qo'yib yozing.

1. Salomatlik tuman boylik. _____
2. Hunarlining qo'li gul. _____
3. Otalar so'zi aqlning ko'zi. _____
4. O'qish hayotni tushunish. _____



“Haqiqiy do'st bo'lishi kerak” fikringizni misollar bilan bayon qiling.

1-DARS

5-MAVZU. KITOB DAN OLGAN SABOQLARIM (Fe'l-kesim va ot-kesim)



1-topshiriq. Eslab qoling va topshiriqlarni bajaring.

Kitob o'qishning 7 foydasi

«Kitob – aqliga haq so'ramaydigan eng yaxshi xazina», degan edi turkiy xalqlarning mashhur mutafakkiri, shoir Alisher Navoiy. Qaysi zamonda yashasangiz ham kitob o'z ahamiyatini yo'qotmaydi. Zamon rivojlanib, qanchadan qancha yetuk texnika, texnologiyalar yaratilmoqda. Ammo ular kitobning o'rnini bosa olmaydi. Kitob o'qigan odamning yo'li hamisha yorug' bo'ladi. Quyida biz kitob o'qishning faqat 7 ta foydali tomoni haqida aytib o'tmoqchimiz.

Kitob o'qish:

1. Atrof-muhitni, dunyoni va o'zini anglashga yordamlashadi.
2. Yodda saqlash va o'ylash qobiliyatini rivojlantiradi. Ya'ni ko'p kitob o'qigan odamning yodda saqlash darajasi yaxshi bo'ladi.
3. Analiz (tahlil) qilishga, shaxsni mustaqil fikrlashga o'rgatadi.
4. Ko'pgina yutuq va muvaffaqiyatlarga asos bo'ladi.
5. Odamlar bilan muomala qilishga o'rgatadi, to'g'ri gapirishni shakllantiradi.
6. So'z boyligini va savodxonlik darajasini oshiradi.
7. Odamdagi yashirinib yotgan ijodiy qobiliyatni yuzaga chiqaradi.



2-topshiriq. Tinglangan matn bo'yicha kitob o'qishning 7 ta foydasini misollar bilan tushuntiring.



3-topshiriq. Ajratib ko'rsatilgan so'zlar o'rniga quyida berilgan so'zlarni qo'llab dialog tuzing.

- U meni yoqtirmaydi.
- Nega u sizni yoqtirmaydi?
- Unga **mening kiyimlarim** yoqmaydi.

Odatlarim, qiliqlarim

Do'stlarim

Fe'l-atvorim O'zimni tuta bilishim

! **Bilib oling!** Fe'l va uning shakllari orqali ifodalanib *nima qilmoq?*, *nima bo'lmoq?* so'roqlariga javob bo'luvchi birliklar fe'l-kesim hisoblanadi. Masalan: Qushlar uchib keldi.

 **1-mashq.** Fe'l-kesimlarni ajratib yozing.

1. Yurt – tinch, sen – tinch. 2. Qushlar sayrayapti. 3. Gullar ochildi. 4. Jannat – onalar oyog'i ostida. 5. Birlashgan – o'zar, birlashmagan – to'zar. 6. Oltin olma, duo ol. 7. Kitob – bilim manbayi. 8. Otang – davlating, onang – jannating. 9. Osmon – musaffo. 10. Kitob o'qiyapman.

Fe'l-kesim:

 **2-mashq.** Nuqtalar o'rniga kerakli qo'shimchalarni qo'yib, matn-
ni ko'chiring.

Kitob_____toza qo'l bilan ushlab kerak. Kitobni yotib o'qish zararli. Kitobni yorug'lik chap tomon_____tushadigan joyda o'qing. Uni ko'z_____yaqin ushlab o'qimang. Ko'z toliqadi. Kitobni buklash yaramaydi. Kitobingiz_____hamisha xatcho'p bo'lsin. Kitob_____nomi va muallifi_____yozib borish foydali.

 **4-topshiriq.** Guruhlarga bo'lining. Kitob o'qish va internetdan foydalanishning foyda va zarari haqida bahs-munozara o'tkazing.

 **5-topshiriq.** Suhbat asosida quyidagi jadvallarni to'ldiring.

| Kitob o'qishning foydasi | Internetning foydasi | Zarari |
|--------------------------|----------------------|--------|
| | | |
| | | |

Kitob o'qish qoidalari:

1. Kitobni toza qo'l bilan ushlab kerak.
2. Kitobni yotib o'qish zararli.
3. Kitobni yorug'lik chap tomondan tushadigan joyda o'qish kerak.
4. Kitobni ko'zga yaqin ushlab o'qish mumkin emas. Ko'z toliqadi.
5. Kitobni buklamang, varaqlarini yirtmang.
6. Kitobga chizmang.
7. Kitobning nomi va muallifini yozib qo'ying.

6-topshiriq. Matnlarni o'qing va munosabat bildiring.

Men ko'p kitob o'qiyman. Kerakli joylarini eslab qolish uchun kitobning varaqlarini buklab, ma'lumotlarning tagiga chizib qo'yaman. Ovqatlanayotganimda ham kitob o'qiyman. Ba'zan kitobga choy yoki ovqatning yog'i to'kilib ketadi. Men qizg'anchiq emasman. Lekin o'qigan kitoblarimni birovga bera olmayman.

Bir tanishimiz tug'ilgan kuni munosabati bilan uyiga taklif qildi. Dasturxon atrofida suhbatlashib o'tirganimda oyog'imga bir narsa botdi. Qarasam, stolga muvozanatni saqlash uchun 2–3 ta kitob qo'yib qo'yilgan ekan.

Nima qilishni bilmay qoldim...

1. Matn qahramoni nima uchun o'qigan kitoblarini birovga bera olmaydi? 3 ta sababini to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligini ko'rsating.

| To'g'ri | Noto'g'ri |
|----------|-----------|
| 1. _____ | 1. _____ |

2. Nima qilishni bilmay qolgan matn qahramoniga qanday maslahat berasiz? Siz uning o'rnida bo'lganingizda nima qilgan bo'lar edingiz?

3 ta taklifingizni yozing.

1. _____
2. _____
3. _____



“Men yoqtirgan asar” mavzusida kichik matn yozing.



7-topshiriq. Matnni o'qing va munosabat bildiring.

Kitob

... Bir yigit oqillar darsini ko'p o'qib, o'zi ham donishmand darajasiga yetganda, podsho uni o'ziga vazir qilib olibdi. O'sha yigitning ukasi o'qishga toqati yo'q ekan. Biroq u hukmdorga yaxshi ko'rinishni orzu qilarkan. "Men ham akamga o'xshagan donishmandman. Borib aqlimni namoyish etaman-u podshoni qoyil qoldiraman", debdi-da yo'lga tushibdi.

– Men osmonda itlarning hurishini eshitdim, – debdi u. Shunda podsho:

– Huzurimda bunday bema'ni gap aytgan bu nodonni zindonga tashlang, – deb hukm qilibdi. Shunda donishmand akasi o'rtaga tushibdi:

– Podshohim, bu mening ukam, gapga birozgina no'noq, maqsadini durust bayon qila olmaydi. Kecha burgut bir kuchukchani olib uchgan ekan. U o'sha kuchukchani angillashini eshitgan, – debdi...

(Tohir Malik)

Savollar:

1. Sizningcha, aka-ukaning taqdiri nima bilan tugagan?
2. Aytaylik, shunday vaziyatga tushib qoldingiz. Siz qanday yo'l tutgan bo'lar edingiz?



Bilib oling! Fe'ldan boshqa so'zlar (ot, sifat, son, ravish, olmosh) orqali ifodalanib *kimdir?*, *qaysidir?*, *nimadir?*, *qanchadir?*, *qandaydir?*, *qayerdir?* so'roqlariga javob bo'luvchi birliklar ot-kesim sanaladi. Masalan: Osmonimiz musaffo. Mehmon aziz.



3-mashq. Tushirib qoldirilgan kesimlarni qo'yib yozing. Kesimning qanday qo'llanganligini tushuntiring.

Kesimlar: *tarbiyalaydi*, *ayt*, *yashaylik*, *farzandiman*, *qayt*, *ko'tarilmaydi*, *qoralayapman*, *to'ldiradi*, *yaxshidir*.

1. Aytar so'zni _____, aytmas so'zdan _____.
2. Hayotda har doim qutlug' niyatlar bilan _____.
3. Ustozlar insonning ruhini _____, ma'naviy boylik bilan _____.
4. 31-avgust sanasi hech qachon hech kimning yodidan _____.

5. Yuzta nomarddan bitta mard _____.

6. Kamina 80 yoshni _____, mustaqil O'zbekistonning ardoqli _____.



8-topshiriq. Dialogni davom ettiring.

Kitob do'konida

– Xayrli kun. Iltimos, menga jahon adabiyoti namunalaridan ko'rsating. Jahon adabiyotiga oid asarlarni o'qimoqchiman.

– Ayting-chi, jahon adabiyotidan kimlarni yaxshi ko'rib o'qiyasiz?

– Herman Hesse, Jek London asarlarini sevib o'qiganman.

– To'g'ringizdagi javonga jahon adabiyoti namunalari terilgan. Tanlab olishingiz mumkin....



9-topshiriq. Savollarga javob bering.

O'qish-o'rganishdan to'xtamang!

Televizor yoki kompyuter oldida o'tkazadigan vaqtingizning bir soatini qiziqarli hamda foydali kitob o'qishga sarflang. Bu mashg'ulot miyangizga dam beradi, tafakkuringizni charxlaydi, dunyoqarashingizni kengaytiradi. Atrofingizda ro'y berayotgan voqealarga teran nigoz tashlay boshlaysiz. Shunda do'st va yaqinlaringiz uchun siz bilan muloqot qilish qiziqarli bo'ladi. Demak, hurmat qozonasiz.

Savollar:

1. Kun davomida televizor, kompyuter oldida o'tirishga qancha vaqt sarflaysiz? Kitob o'qishga-chi?

2. O'ylab ko'ring-chi, qaysi biridan siz ko'proq ma'naviy oziqa olasiz?



4-mashq. “O'qish-o'rganishdan to'xtamang!” matnidagi kesimlarni aniqlang. Kesimlarni so'rog'i bilan birga yozing.



10-topshiriq.

Kitob o'qimaydigan odam fikrlashdan to'xtaydi. Kishi fikrlashdan to'xtasa uning o'rniga boshqalar gapira boshlaydi. Barcha ma'naviy haquqlaridan mahrum bo'lgan manqurt kabi...

Bir donishmanddan so‘rashibdi:

- Inson ko‘proq bilim va aqlga ega bo‘lishi uchun nima qilishi kerak?
- Ko‘p kitob mutolaa qilishi zarur.

Yana so‘rashibdi:

– Sizningcha, hayotda kitob o‘qiydigan aqllilar ko‘pmi yoki o‘qimaydiganlarmi?

– O‘qimaydiganlar.

– Nima uchun?

– Chunki kitob o‘qimaydiganlar o‘zlarini shundoq ham aqlli hisoblaydilar...

Inson eshitgan ma’lumotini to‘liq eslay olishi qiyin, ko‘rgani esa xotirada unchalik muhrlanmaydi. Lekin, kitobda o‘qigan ma’lumotni uning nomini eshitishi bilanoq darrov eslaydi.

“Kitoblar keksalikda eng yaxshi do‘st, ayni paytda yoshlikning eng aziz rahnamosidir”. (S. Smayls)



11-topshiriq. Berilgan gaplar asosida jadvalni to‘ldiring.

Kitob o‘qimaydigan odam fikrlashdan to‘xtaydi. Inson ko‘proq bilim va aqlga ega bo‘lishi, televizor ko‘rishi kerak. Inson eshitgan ma’lumotini to‘liq eslab qoladi. Ko‘rganini esa unchalik xotirlay olmaydi. Kitobdan o‘qilgan ma’lumot tez yodidan ko‘tariladi. Kitoblar yoshlikda ham, keksalikda ham eng yaxshi do‘st.

| Fikr to‘g‘ri berilgan | Fikr noto‘g‘ri berilgan |
|-----------------------|-------------------------|
| | |

O‘zingizni sinab ko‘ring.

Savollar:

1. “Kitob – aqliga haq so‘ramaydigan eng yaxshi xazina”. 3 ta sababini ko‘rsating.

_____.

_____.

2. Kitob o‘qish qoidasiga nimalar kiradi? Misollar keltiring.



O‘qigan kitoblaringiz ro‘yxatini tuzing.

1-DARS

6-MAVZU. ILM ODOBI (Ega va kesim orasida tirening ishlatilishi)



1-topshiriq. Tushunganlaringizni soʻzlab bering.

Agar inson ilm nuri bilan oʻz yoʻlini yoritmasa, nodonlik koʻchasida qoladi. Kishi qalbining nuri ilm va maʼrifat bilan baquvvat boʻladi. Insoniyatning qadri ilm bilan yuksaladi. Ilmdan hali hech kim zarar koʻrgan emas. Ilmni egallab olish esa bir sanʼatdir.

Bilim qidirishga urdim boshimni,
Bekor oʻtkazmadim umrimni bir dam.
Qaydagi eshitsam ilm-u donishni,
Eshigi tagida oʻltirdim mahkam.

(Nosir Xisrav)



2-topshiriq. Ajratib koʻrsatilgan soʻzlar oʻrniga qavs ichida berilgan soʻz birikmalaridan foydalanib, dialog tuzing.

- U musiqani yoqtiradimi?
- Ha.
- U qanday kuylarni yoqtiradi?

.....

(zamonaviy musiqa, musiqali filmlar, hayotiy pyesalar, komediyalar, sarguzasht filmlar, yangiliklar)



Bilib oling! Ega va ot-kesim orasida tirening ishlatilishi. Ot-kesim kimdir?, nimadir?, qayerdir?, qanchadir? soʻroqlariga javob boʻladi. Kesimlik qoʻshimchasi (-dir) boʻlmasa, ega va kesimning oʻrtasiga tire qoʻyiladi:
Ikki karra toʻrt – sakkiz.
Vatan – muqaddas.
Mening iqrorim – shu.
Niyatim – oʻqish.
Odob – insonning boyligi.



1-mashq. Ega va kesimni aniqlab, tirening qoʻllanishiga eʼtibor bering.

1. Kulish – umrni uzaytirish vositasi.
2. Bu siz uchun katta sinovdir.
3. Uch karra uch – to‘qqiz.
4. Istiqlol – bu o‘zbek xalqining azaliy orzusi.
5. Tinchlik – farovon hayot manbayi.
6. Til – aql xazinasining qilichi, farosat – uning g‘ilofi.
7. Niyatim – sahroda ham yangi shaharcha barpo etib, cho‘lni bog‘-bo‘stonga aylantirish.

 **2-mashq. Ilm haqida berilgan maqollarning ma’nosini tushuntiring. Ega va kesimini ko‘rsating.**

1. Bilgan o‘zar, bilmagan to‘zar. _____
2. Bilimning bilimi yuqar, bilimsizning nimasi yuqar. _____
3. Bilim – davlatdan qimmat. _____.
4. Ilm istasang, takror qil. _____.
5. Ilm – aql bulog‘i, aql – yashash chirog‘i. _____.
6. Ilmlining so‘zi – o‘q. _____.

 **3-topshiriq. Matnni o‘qing va munosabat bildiring.**

Ilmga amal qilish

Ilmga amal qilmagan olim johillar qatoriga kiradi.

(Abu ibn Abu Tolib)

Biz uch farzand ota-onamizdan erta yetim qoldik. O‘shanda katta opam 17 yosh, akam 10 yosh, men 6 yoshda edim. Barcha uy yumushlari opamning zimmasida edi. Yetmaganiga kechalari biz bilan shug‘ullanardi. Dars tayyorlatar, kitoblar o‘qib berar edi. Opam a‘lochi bo‘lishiga qaramay, bizni deb o‘qishga kirmasdan, fabrikaga ishga kirdi, turmush qurmadi, o‘qishimiz uchun bor kuchini ayamadi. Opamning sharofati bilan akam ikkimiz birin-ketin oliy o‘quv yurtlarini bitirdik. Keyinchalik olim bo‘lib, nufuzli joylarda ishladik, oilali bo‘ldik...

Kunlarning birida kichik o‘g‘limning tug‘ilgan kuniga yig‘ildik. Opam o‘g‘limga “Dunyo ajoyibotlari” nomli kitob sovg‘a qildilar. O‘g‘lim kitobni divanning ustiga tashladi-da, telefonida o‘yin o‘ynay boshladi. Shunda opam o‘yin o‘rniga ertak kitoblardan o‘qishni tavsiya qildi. O‘g‘lim: “Ammajon, siz nimaniyam tushunar edingiz?” – dedi...

Shu-shu opam biznikiga kelmay qo‘ydilar. O‘ylab qaragam, akam ikkimiz opamga, hatto tug‘ilgan kunlarida ham biror marta sovg‘a bermagan ekanmiz...

1. Hayotda bunday voqealar ko'p uchraydi, to'g'rimi?!
2. Aslida kimni haqiqiy olim deb o'ylaysiz?
3. Bunday ukalarga qanday baho berish mumkin?
4. Siz ularning o'rnida bo'lsangiz nima qilar edingiz?

“Darsingni tayyorladingmi? Vaqtingni bekor o'tkazmay, kitob o'qi. Til o'rgan. Uy vazifalarini vaqtida bajar. Imtihonlarga jiddiy tayyorlan. Bugun necha soat dars tayyorlading?” – kabi savollarni ko'p eshitasiz. Ba'zan jahlingiz chiqadi, to'g'rimi? Endi o'ylab ko'ring-chi, aslida siz kim uchun va nima uchun o'qib o'rganishingiz kerak?



Sa'diy Sheroziyning quyidagi hikmatini o'qing va munosabat bildiring. Fikringizni misollar bilan yozma bayon qiling.

Hikmat: Ikki toifa odam behuda ishlab, behuda harakat qilgan bo'ladi: biri – mol-mulk yig'ib, foydalanmagan odam, ikkinchisi esa, ilm olib unga amal qilmagan odam.

2-DARS



4-topshiriq. Matni o'qing va munosabat bildiring.

Bir donishmanddan so'radilar:

– Qanday qilib ilmning eng yuqori cho'qqisiga chiqdingiz?

Donishmand shunday javob berdi:

– Bilmagan, tushunmagan narsamni olimdan ham, oddiy kishidan ham, kattadan ham, kichikdan ham so'radim. Bu borada uyalmadim, o'zimni katta tutib, mutakabbir bo'lmadim.

*Uyalma ma'rifatni o'rganurdan,
Tanur joying bo'lur, qolsang tanirdan.*

1. Donishmandning javobiga munosabat bildiring.
2. Siz bilmagan, tushunmagan narsalaringizni bilish uchun nima qilgan bo'lar edingiz?



3-mashq. Ega va kesim orasida tirening ishlatilishiga e'tibor bering. Kerakli o'ringa tire belgisini qo'yib yozing.

1. Jahl dushman, aql do'st.
2. Alpomish xalq sevgan qahramon.
3. Ishonch eng qudratli ijodiy kuch.
4. Sen Vatanni madh etgan minbar

mehrobdir. 5. Bilim olish yuksalish. 6. Halol yashamoq xalqqa xizmat qilmoq. 7. Ilmsiz inson mevasiz daraxt.

 **4-mashq.** Gapdagi kesimlik qo'shimchasini tushirib, kerakli o'rinlarga tire qo'yib ko'chiring.

1. Qushlar bizning do'stimizdir. _____.
2. Maqsadim katta tadbirkor bo'lishdir. _____.
3. Alisher Navoiy o'zbek tilining asoschisidir. _____.
4. Do'stimning akasi diplomat. _____.
5. Birinchi oktabr O'qituvchi va murabbiylar kuni _____.
6. Shirin so'z shakardan shirin. _____.
7. Bilim va hunar egizakdir. _____.
8. Boylikning eng yaxshisi ko'ngil boyligidir. _____.

 **5-topshiriq.** Hikmatlarni o'qing va misollar bilan tushuntiring.

1. Ilm shunday bir mo'jizakor ne'matki, uning bahosi yo'q. Kishini ilmdan mahrum qilishga hech kimning qudrati yetmaydi. Shu bebaho bilimni yig'ish lozim.

2. Yuksak ilmi kishilar yonida yolg'on so'zlama va ularni aldashga urinma, siring darrov fosh bo'ladi. Ular bilimi bilan ichingni tez va aniq ko'ra biladi.

(*"Inson ziynati odobdur"* kitobidan)

 **6-topshiriq.** O'zingizni sinab ko'ring.

1. Ega va kesim orasida tirening ishlatilishiga misollar keltiring.

2. Ilm haqidagi maqollardan 3 tasini yozing va ularning ma'nosini tushuntiring.

 **"Men ko'p o'qishim kerak, chunki..." fikringizni yozma bayon qiling.**

1-DARS

7-MAVZU. BUYUK KASHFIYOTLAR (Aniqlovchi)



1-topshiriq. Eslab qoling va savollarga javob bering.

Sharq va G'arb ijtimoiy-madaniy integratsiyalashuvida, fan va madaniyatning rivojlanishida Ibn Sinoning o'rne beqiyosdir. U G'arbda Avitsenna nomi bilan tanilib, uning "Al-qonun fit-tib" asari tibbiyot ilmi yuqori cho'qqilarga ko'tarilishida katta o'rin tutgani ma'lum. Ibn Sino nafaqat Sharq uchun, balki G'arb uchun ham tibbiyot ilmidagi eng mo'tabar olim sanaladi. Uning asarlari tabiatshunoslikning insonni o'rganadigan sohasiga kirishga yo'l ochdi. Ibn Sinoning faoliyatini o'rganish borasida nemis olimlari, asosan, tabiiy fanlar sohasida muhim ilmiy tadqiqot ishlari olib bordilar. O'rta asr islom tabiatshunosligi mutaxassisi Aylxard Videmanni "Ibn Sinoning ko'rish jarayoni haqidagi tasavvurlari" degan tadqiqot ishini yaratdi. Lippert allomaning oftalmologiya sohasidagi tajribalari ustida ish olib bordi. Maks Xorten Ibn Sinoning kamalak haqidagi tushunchalari bilan birga, uning metafizikasini ham o'rgandi. Shveysariyalik X.Suter esa shu mavzuni tadqiq etdi.

1. Fan va madaniyatni yuqori cho'qqiga ko'tarishda Ibn Sinoning o'rne qanday bo'lgan, tushuntirib bering.
2. Uning yana qanday asarlarini bilasiz?
3. Ibn Sino faoliyatini o'rgangan olimlar va ularning tajribalari haqida ma'lumot bering.
4. Ibn Sino haqida yana nimalarni bilasiz? Qo'shimcha ma'lumotlar bilan matnni to'ldiring.



Bilib oling! Aniqlovchi egani yoki to'ldiruvchini aniqlab keladi. Aniqlovchilar *qanday?*, *qanaqa?*, *qaysi?*, *kimning?*, *nimaning?*, *qayerining?*, *qanchaning?* so'roqlariga javob bo'ladi. Masalan: Sobir odobli bola. Toshkentning ko'chalari keng va chiroyli.



1-mashq. Berilgan so'zlarga qavs ichidagi so'zlardan mosini qo'yib, so'z birikmasi tuzing.

Namuna: *Obod Vatanimiz, mayin shamol.*

1. Mustaqil, mehnatsevar, bepoyon, buyuk, ahil, obod, zahmatkash.
(Vatanimiz, xalqimiz).
2. Chiroyli, quvnoq, kichkina, yengil, mayin, yoqimli, ajoyib, sayroqi.
(Shamol, hayot, qushcha).



2-topshiriq. Quyida berilgan savolga mos javoblarni tanlab dialog tuzing.

- Nima qilayapsiz?
- Men

Javoblar:

- Ishbilarmonlikka qiziqyapman.
- O'zbekiston tarixiga qiziqyapman..
- Yapon falsafasini ko'rib chiqyapman.
- Til o'rganyapman.



Bilib oling! Shaxs yoki narsaning belgisini bildirib, *qanday?*, *qanaqa?*, *qaysi?*, *qancha?* so'roqlariga javob bo'lgan birlikka sifatlovchi-aniqllovchi deyiladi. Masalan: O'zbeklar mehmondo'st xalq. Do'st – aziz.



2-mashq. Nuqtalar o'rniga namunada berilgan sifatlovchi-aniqllovchilardan mosini qo'yib yozing.

Namuna: *uning, ziyrak, qo'ng'ir, yaxshi, hayotining, keng moviy.*

1. _____ dengizlar va yuksak tog'lar bag'rida sayr etish inson tafakkurini charxlaydi, _____ mohiyatini anglatadi.
2. Siringni _____ tanimagan odamlaringga aytma, uni qalbingda saqlaganing foydaliroqdir.
3. _____ ko'zlarida horg'inlik bor edi.



3-topshiriq. Buyuk kashfiyotlar yaratgan olimlar va ularning kashfiyotlari ro'yxatini tuzing.



Bugungi kundagi buyuk kashfiyotlar haqida kichik matn yozing.

2-DARS



4-topshiriq. Topshiriqlarni bajaring.

Kashfiyot va ixtironing farqi

Izlanish, tekshirish va ilmiy tadqiqot natijasida, ba'zan esa tasodifan topilgan yoki yaratilgan ilmiy yangilik kashfiyot hisoblanadi. Insoniyat bosib o'tgan tarixiy jarayonda juda ko'p kashfiyotlar qilingan.

– Jahondagi eng buyuk kashfiyot **Beruniyning** “*Yerning o'z o'qi atrofida aylanishi va sayyoralarning Quyosh atrofida aylanishi*” to'g'risidagi ilmiy nazariyasidir.

– Ushbu ilmiy nazariya 500 yildan so'ng Yevropada **Kopernik** tomonidan takrorlangan.

Keyingi olamshumul kashfiyot **Nyutonning** “*Butun olam tortishish qonuni*” hisoblanadi. Insoniyat tomonidan “*Atom va vodorod bombalarining o'ylab topilishi*” mudhish kashfiyot sanaladi. Kashfiyot bilan ixtironi bir-biridan farqlash kerak. Kashfiyot natijasida muayyan qonunlar yaratiladi. Fanda muhim yangiliklarning yuzaga kelishi ixtiro deyiladi.

Jahondagi mashhur ixtirolarga **Arximedning** *suv chiqarish vinti*, nemis talabasi **Motor** tomonidan *ichki yonuv dvigatelining yaratilishi*, **Fon Bravun** va **Korol Yov** tomonidan *raketalarni yasash* va boshqalar kiradi.



5-topshiriq. Ixtirolar ro'yxatini tuzing. O'zingiz bilgan ixtirolar haqida so'zlab bering.



Bilib oling! Shaxs yoki narsaning ikkinchi bir narsaga qarashli ekani bildirib, *kimning?*, *nimaning?*, *qayerining?* so'roqlariga javob bo'lgan aniqlovchiga **qaratqich-aniqlovchi** deyiladi. Masalan: Vatanimizning kelajagi porloq. Maktabimizning hovlisi keng.



3-mashq. Nuqtalar o'rniga namunada berilgan qaratqich-aniqlovchilardan mosini qo'yib yozing.

Namuna: *Amir Temurning, ibodatlarning, savoblarning, odamlarning, injenerlikning, keksalarning, mana shu, kichikning, kattaning.*

1. Bir _____ gapiga kir, bir _____ gapiga kir.

2. _____ o'yin-kulgilar, qo'shiqlar va kuylar yoshlar va _____ diliga orom va quvonch bag'ishlagan lola sayli yaqindagina bo'lgan edi.
3. U _____ mas'uliyatini yana bir bor his etdi.
4. _____ joniga oro kirib, og'ir yumushini yengil qilish ham ibodat, ham savob.
5. Suvni tejash _____ eng kattasidir, _____ eng ulug'idir.
6. Bobomiz _____ olib borgan ma'naviy-ma'rifiy ishlari ibratlidir.

Sukut – aqllilikdir

Sukut saqlab tinglay olish – bu juda katta mahorat. O'zingiz haqingizda nimani aytish kerakligi yoki qaysi biri ortiqchaligini o'ylab ko'ring. Suhbatdoshingiz bu haqda so'ramasa, sukut saqlaganingiz ma'qul.

Yaxshisi, siz haqingizda imo-ishorangiz, harakatlaringizning o'zi "gapirsin". Suhbatning qiziqarli va jonli kechishida mimikaning o'rni katta. Siz suhbatdoshingizda yaxshi va do'stona taassurot qoldirishni istasangiz, jilmayib turing. Ko'z qarashingizdan suhbat mavzusiga qarab hayrat, ishonch yoki hamdardlik balqib tursin. Bu usul ishbilarmonlik tanishuvlarida juda qo'l keladi.



6-topshiriq. Savollarga misollar bilan javob bering.

1. Ko'p va uzoq vaqt gapiradigan insonlar haqida fikringiz.
2. Bir-biriga gap bermay birdaniga gapiradigan kishilarni chetdan kuzatganmisiz? Bu holatni qanday tushunasiz?
3. Suhbatdoshingizda yaxshi taassurot qoldirish uchun nimalarga e'tibor berish kerak deb o'ylaysiz?

7-topshiriq. O'zingizni sinab ko'ring.

Quyidagi olimlar tomonidan yaratilgan kashfiyotlarni yozing.

Beruniy _____

Ibn Sino _____

Nyuton _____

Arximed _____



"Niyatim ixtiro qilish" o'ylab qo'ygan kelgusi rejalaringiz haqida fikringizni bayon qiling.

1-DARS

8- MAVZU. AXBOROT ALMASHISH VOSITALARI (To'ldiruvchi)



1-topshiriq.

Axborot almashish vositalari

Inson hayotining sivilizatsiyasi rivojlanib bormoqda. Hayotimizga avval telegraf, radio, telefon kirib keldi. Keyinchalik radiotelefon, peyjer, uyali aloqa vositalari: mobil telefonlari, teleks, telefaks, elektron pochta, internet kabilar paydo bo'ldi.

Telefonda so'zlashuv. Telefonsiz insonga tez yordam ko'rsatib bo'lmaydi. Bunda bo'lib o'tgan voqeani aniq va lo'nda ifoda etish zarur. Ortiqcha gaplar bilan vaqt yo'qotmagan ma'qul.



2-topshiriq. Ajratib ko'rsatilgan javob o'rniga quyida berilgan so'z birikmalaridan foydalanib dialog tuzing.

- Shoira nima qilayapti?
- U **televizor ko'rayapti.**
- U bundan mamnunmi?
- Ha. U juda ham mamnun.
-
- Matnni o'qiyapti.
- Muammoni muhokama qilyapti.
- Ish yuzasidan gaplashyapti.
- Gazeta o'qiyapti.
- Pianino chalyapti.



Bilib oling! Fe'l-kesimga bog'lanib, *kimga?, nimaga?, kimdan?, nimadan?, kimni?, nimani?, kim bilan?, nima bilan?* so'roqlariga javob bo'luvchi bo'laklarga **to'ldiruvchi** deyiladi.

To'ldiruvchi 2 xil bo'ladi. Vositali va vositasiz.

Vositasiz to'ldiruvchi tushum kelishigi qo'shimchasi bilan qo'llanib, *kimni?, nimani?, qayerni?* so'roqlariga javob bo'ladi. Masalan: Buvim **Anvarni** tabrikladi. Qiz **gulni** uzdi. Bobom **bog'ni** aylandi.

 **1-mashq.** Ajratib ko'rsatilgan vositasiz to'ldiruvchilarning qo'llanishini tushuntiring.

1. Yashashni istasang, **bilim** ol va **ishlashni** o'rgan.
2. “**Vatanni** mardlar qo'riqlaydi”, ta'kidladi harbiy ta'lim o'qituvchisi.
3. To'garakda oqila qizlarimiz tikuvchilik **san'atini**, bichuvchilik **mahoratini**, kashtado'zlik va zardo'zlik **sirlarini**, popopchilik **kasbini** o'rganadilar.
4. Elchi hozir o'z podshohining **topshirig'ini** bajarish uchun butun **ayyorligini** ishga solar, tilyog'lamalik qilib, **To'marisni** maqtab, ko'klarga ko'tarar edi. (*M. Osim*)

 **2-mashq.** To'ldiruvchilarni aniqlang. To'ldiruvchi va so'rog'ini yozing.

1. Siz meni chalg'itmang.
2. Aqlli o'zini ayblar, aqlsiz – do'stini.
3. Do'stim meni uyiga taklif qildi.
4. Halol mehnat kishini elga tanitadi.
5. Bugungi ishni ertaga qo'yma.
6. Men sizdan minnatdorman.
7. Bahrom rasm chizishga qiziqadi.
8. Kechirasiz, ustoz, sizni bezovta qilmadimmi?
9. Do'stim, telefon raqamingni aytib yubor.
10. Ustoz, qoidani yana bir marta tushuntirib bering.

1. To'ldiruvchi

2. So'rog'i

Axborot vositalaridan foydalanish madaniyati

Telefonda gaplashishning bir necha umumiy qoidalari bo'lib, har bir inson bunga rioya qilishi kerak:

- Har qanday qo'ng'iroq salomlashish va tanishishdan iborat bo'ladi.
- Suhbatni boshlashdan avval: “Muhim ishdan qoldirmadimmi?” deb so'rang.
- Juda kech bo'lib qolganda tanishingizga qo'ng'iroq qilmang.

- Agar kimdir raqamni noto'g'ri terib, sizga tushib qolsa, qo'pollik qilmang.
- Hech qachon telefon qilayotgan odamdan “Kim bu gapirayotgan?” deb so'ramang. Bu odobdan emas.
- Telefonda gaplashayotgan vaqtda uzilib qolsa, o'sha odamga qayta qo'ng'iroq qiling.
- Go'shakdan baqirib gapirmang.
- Ogohlantirmasdan turib, kechqurun soat 22.00 dan keyin ertalab soat 9.00 gacha telefon qilmang.

 **3-topshiriq.** Telefonda gaplashish qoidalariga amal qilgan holda do'stingiz bilan suhbatga kirishing.

4-topshiriq. O'zingizni sinab ko'ring.

Telefonda gaplashish qoidasining buzilishiga misollar keltiring.

1. _____
2. _____
3. _____
4. _____
5. _____

«Agar telefon bo'lmasa...» sabablarini ko'rsating.

1. _____
2. _____
3. _____

 **“Mobil telefondan maqsadda foydalanaman”** mavzusida fikringizni yozma bayon qiling.



5-topshiriq. Topshiriqlarni bajaring.

Telefon aloqalarining yo'qligi ilgarigi zamonlarda ko'p noqulayliklar keltirib chiqarardi. Cho'ntak, sumka, bo'yimizga osib yuradigan telefonlarning afzalligi shundaki, ular uzoqni yaqin qiladi. Lekin bizda mobil telefonida gaplashish odobi shakllanmagan. Ko'pincha ko'chada, transportda, odamlar orasida kimdir mobil telefoni orqali baqirib gaplashayotganining guvohi bo'lamiz. Aytishlaricha, Yaponiyada avtobusda ketayotgan bir odam mobil telefonida baqirib gaplashib ketayotgani uchun atrofidagi yo'lovchilar uni do'pposlashgan ekan.

1. Matnga sarlavha qo'ying.
2. Telefon aloqalari bo'lmasa yuzaga keladigan noqulayliklarga misollar keltiring.
3. Mobil telefonlarining afzalligi nimada?
4. Mobil telefoni bilan gaplashish odobi shakllanmaganligiga munosabat bildiring.
5. Siz mobil telefonidan qanday maqsadlarda foydalanasiz?



Bilib oling! Vositali to'ldiruvchi jo'nalish, o'rin-payt, chiqish kelishigi qo'shimchalari va ko'makchilar bilan qo'llanib, kimga?, nimaga?, kimda?, nimada?, kimdan?, nimadan?, kim uchun?, nima uchun?, kim haqida?, nima haqida?, kim bilan?, nima bilan? so'roqlariga javob bo'ladi. Masalan: **Yaxshiga** yondosh, **yomondan** qoch.

Yovdan qo'rqqan **yovga** do'st.

Men **unga do'stim haqida** so'zladim.



3-mashq. Berilgan to'ldiruvchilarga savol bering. Nuqtalar o'rniga mos to'ldiruvchilarni qo'yib yozing.

1. Nasiba _____ maktub yozdi.
2. Otabek _____ yordamlashdi.
3. Kamola _____ olgan _____ o'qib o'tirardi.
4. Dilfuza _____ o'tkazgan so'zlarini daftarga yozdi.
5. Umida _____ bajarib, so'ng _____ tayyorladi.
6. Murod _____ bozorga bordi.

7. _____ to'yib-to'yib ichdim.
8. _____ yer ko'karadi, _____ el ko'karadi.
9. _____ kelsa boylik, _____ bo'lar chiroyli.

To'ldiruvchilar: dugonasiga, dadasiga, buvisidan, kitobni, ko'ngildan, uy ishlarini, darslarini, bobosi bilan, buloq suvidan, yomg'ir bilan, duo bilan, mehnatdan, turmush.



4-mashq. Qavs ichidagi so'zlarga kerakli qo'shimchalarni qo'shib ko'chiring. Ega, kesim, to'ldiruvchilarni aniqlang.

Olapar (qo'ylar) poylab yotardi. U (bo'ri) ko'rib qoldi. Qo'ylar (bo'ri) hurkdi. Olapar yugurib borib, (bo'ri) tashlandi. Shu payt cho'pon yetib kelib, (bo'ri) cho'qmor bilan urdi. Qo'ylar (bo'ri) qutuldilar.



6-topshiriq. Mobil telefoningizning xotirasidagi dasturlarning ro'yxatini tuzing.



7-topshiriq. Matnni o'qing. Mazmunini so'zlab bering.

Teleks – xalqaro kommutatorlik telegraf aloqa turi bo'lib, 100 ga yaqin mamlakatlar orasida xabar almashish va rasmiy muzokaralar olib borishga xizmat qiladi. Teleks MDH – xalqaro tarmoqning bir qismi hisoblanadi. Teleksda xabar jo'natishning bir necha talablari bor. Ular:

1. Qisqaroq.
2. Lotin harflarida yozilishi kerak (hatto matn rus tilida o'tkazilsa ham).
3. ATTN yozuvlaridan kerak: ism, familiya, keyin vergul yoki chiziqcha qo'yib – tashkilotning nomi.
4. Keyingi qatordagi yozuvlaridan keyin: bu xabar kim tomonidan jo'natilayotgani ko'rsatiladi.
5. Xabarni jo'natib bo'lganingizdan keyin xabar yetib borganligi haqida sizga ma'lumot keladi.



8-topshiriq. Teleksda xabar jo'natishning talablaridagi xatolarni aniqlang.

Teleksda xabar jo'natish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

1. Matn xatosiz va batafsil berilishi kerak.

2. Matn barcha tillarda yozilishi kerak.
3. ATTN yozuvlaridan kerak: ism, familiya, tashkilotning nomi yoziladi.
4. Keyingi qatordagi yozuvlaridan keyin: xabar jo'natilayotgani ko'rsatiladi.
5. Xabar jo'natilganidan keyin xabar yetib borganligi haqida ma'lumot so'raladi.



“Agar kompyuter bo‘lmasa...” fikringizni yozma bayon qiling.

1-DARS

9-MAVZU. DOLZARB TELEDASTURLAR (To'ldiruvchining ifodalanishi)



1-topshiriq. Eslab qoling va topshiriqlarni bajaring.

Toshkent – televideniya vatani!

1928-yilda Toshkentda jahonshumul voqea yuz berdi. O'zbekistonlik ixtirochilar Boris Pavlovich Grabovskiy va Ivan Fillipovich Belyanskiylar elektron nur yordamida harakatdagi tasvirni (1) bir joydan ikkinchi joyga uzatadigan va qabul qiladigan «radiotelefon»ni (2) kashf etdilar. Shunday qilib, sayyoramizda insoniyat yaratgan mo'jiza – televideniya O'zbekiston poytaxti Toshkentda yaratildi.

Ma'lumki, Toshkentda 1918-yilda (bu ixtirodan (3) rosa 10 yil oldin!) hozirgi Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti tashkil topgan. O'sha ixtirochilar Boris Pavlovich Grabovskiy va Ivan Fillipovich Belyanskiylar universitetda faoliyat ko'rsatishgan. Eng muhimi, O'zMU Fizika fakulteti muzeyida o'sha dastlabki telejihazlar saqlanar ekan.



2-topshiriq. Yana qanday ixtirolar haqida bilasiz? Misollar keltiring. Matndagi raqamlangan so'zlarni gap bo'laklarining turiga ko'ra tahlil qiling.



3-topshiriq. Suhbatni o'qing. O'zingiz xohlagan mavzu bo'yicha suhbat matnini tuzing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlar ishtirokida gaplar tuzing.

- Iltimos, **menga** bozorga qanday borishni ayting.
- Bu markaziy parkka boradigan yo'lmi?
- Ha, u bu yerdan unchalik uzoq emas.
- Hozir qaysi tomonga yurishim kerak?
- Yuring, men **sizga yo'lni** ko'rsatib qo'yaman.



Bilib oling. To'ldiruvchi quyidagi so'z turkumlari bilan ifodalani:

Ot bilan: Aqli o'zini ayblar, aqlsiz – do'stini.

Otlashgan sifat bilan: Chiniqqanga dard yuqmas.

Son bilan: Sizga ikkitadan kitob berdim.

Sifatdosh bilan: Ko'rganni eshitgan yengibdi.

Olmosh bilan: Men sizni yaxshi bilaman.



1-mashq. Savollar o'rniga ot bilan ifodalangan to'ldiruvchini qo'yib o'qing.

1. Men kecha kutubxonada (kimni?) ko'rdim, u (kimga?) salom aytib yubordi.
2. Tadbirda ma'ruza qilish (kimga?) topshirildi.
3. Bobom mevali (nimalarni?) yaxshi parvarish qiladilar.
4. O'qituvchi (nimani?) tushuntirib berdi.
5. Quruvchilar (nimani?) muddatidan ilgari bitirishga va'da berdilar.
6. (Kimga?) ish buyursang, (kimga?) aql o'rgatar. (*Maqol*)
7. (Kimdan?) ot qoladi, (kimdan?) dod. (*Maqol*)



4-topshiriq. O'zbekiston teledasturlari ro'yxatini tuzing. Shulardan o'zingiz yoqtirgan teledastur haqida so'zlab bering.



5-topshiriq. Matnni o'qing. Suxandon qanday bo'lishi kerakligi haqida fikringizni bildiring. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga savol bering. So'rog'i bilan birga yozing.

Ustoz o'g'itlari

Bizga mashhur suxandon O'ktam Jobirov ustozlik qilganlar. Ular doim "Suxandonlik o'ta murakkab va mas'uliyatli kasb. **Suxandonda** nutq madaniyati, o'zini tutish madaniyati, kiyinish madaniyati yuqori darajada

bo'lishi kerak. Chunki **sizni** butun O'zbekiston xalqi tomosha qiladi. Suxandon nafaqat ishda, balki, ko'chada, jamoat joylarida, turli tadbirlar, do'stlar davrasida, qo'yingki, hamma vaqt **o'zini** nazorat qilishi kerak. Ochiq-sochiq **kiyinishdan**, yarashmagan **qiliqlarni qilishdan o'zini** tiyishi kerak. Shunchaki ehtiyoj yuzasidan **shu kasbni** egallamoqchi bo'lsangiz, hoziroq **televideniyan** tark eting", – der edilar. **Ustozni** ko'rishimiz bilan **sochlarimizni** yig'ishtirib olar edik. Ish stolimizda ortiqcha narsa bo'lmas edi. Har bir **ko'rsatuvga** tayyorgarlik **jarayonini** o'zlari qattiq nazorat qilar edilar. Biz **ustozimizdan** bir umr minnatdormiz.

(Nasiba Ibrohimova, sobiq suxandon.)



2-mashq. To'ldiruvchilarni aniqlab, ma'nosidagi farqni aytib bering.

1. Onam hikoyani o'qib berdi. Onam hikoyadan o'qib berdi.
2. Ukam murabboni yedi. Ukam murabbodan yedi.
3. Darsda Alisher Navoiy ruboiylarini o'qidik. Darsda Alisher Navoiy ruboiylaridan o'qidik.
4. Men mashqni ko'chirdim. Men mashqdan ko'chirdim.
5. Biz olmalarni terdik. Biz olmalardan terdik.
6. Bobom menga bir bosh uzum berdi. Bobom uzumni menga, olmani ukamga berdi.



6-topshiriq. Quyidagi savollar yordamida o'zaro bahslashing.

1. Bugungi tayyorlangan ko'rsatuvlarning saviyasini yuqori darajada deya olasizmi? Nima sababdan?
2. Suxandonlarning o'zini tutishi, kiyinishini qoniqarli deb o'ylaysizmi? Nima uchun?
3. "Agar men suxandon bo'lganimda...", "...mazmundagi ko'rsatuvlarni tayyorlashni xohlardim" mavzularidan biriga fikringizni yozma bayon qiling.



Sizga qaysi teleko'rsatuvlar yoqadi, nima uchun? Fikringizni yozma bayon qiling.

2-DARS



7-topshiriq. Savollarga javob bering.

Toshkent teleminorasi

Toshkent teleminorasi O'rta Osiyodagi eng baland binodir. Teleminorasi 1985-yilning 15-yanvarida ishga tushirilgan. O'sha paytda Toshkent teleminorasi jahonda balandligi bo'yicha to'rtinchi o'rinda turgan. O'shanda u Toronto, Moskva, Nyu-York va Tokiodagi inshootlar qatorida dunyoning buyuk minoralari xalqaro federatsiyasining a'zosiga aylangan. Bugungi kunda u Markaziy Osiyoning yagona va eng baland binosi hisoblanadi. MDH davlatlari teleminorolari ichida esa, Ostankinodan keyingi ikkinchi o'rinni egallaydi.

XX asrning 60-yillariga kelib televideniya va radio O'zbekiston madaniy hayotida mustahkam joy egallay boshladi. 1957-yilda bunyod etilgan 180 metrli birinchi O'zbekiston telemarkazi 4 millionlik poytaxt va Toshkent viloyati aholisi ehtiyojini yetarlicha qondirish, televizion ko'rsatuvlarni ko'paytirish va tog'li tumanlarga dasturlarni yetkazishga o'zlik qilib qoldi. 1971-yilda yangi teleminorasi loyihasini tayyorlashga kirishildi. Loyiha juda sinchkovlik bilan o'rganildi, qayta-qayta sinovlardan o'tkazildi. Chunki bunday balandlikdagi inshoot qurilishi hali tajribada bo'lmagandi. 1978-yilda teleminorasi qurilishi boshlandi.

Teleminorasi qurilishi "11-baland qurilish" boshqarmasi quruvchilari tomonidan amalga oshirildi. 1985-yil 15-yanvarda poytaxtning Yunusobod tumani Bo'zsuv yoqasida Toshkent teleminorasi qad rostladi, inshootning eng baland nuqtasida Vatan bayrog'i hilpiray boshladi.



8-topshiriq. Savollarga javob bering.

1. Toshkent teleminorasi qachon ishga tushirilgan?
2. Ishga tushirilayotgan paytida Toshkent teleminorasi jahonda balandligi bo'yicha nechanchi o'rinda turgan? Hozir-chi?
3. Teleminorasi qurilishi kimlar tomonidan amalga oshirilgan?
4. Toshkent teleminorasining asosiy vazifalari nimalardan iborat?

 **3-mashq.** Maqollarni o'qing. Mazmunini tushuntiring, to'ldiruvchilarni aniqlang.

1. Odobni odobsizdan o'rgan.
2. Mardni mehnat yengolmaydi.
3. Ish seni yengmasin, ishni sen yeng.
4. Oltin o'tda, odam mehnatda bilinadi.
5. Bugungi ishni ertaga qo'yama.

 **9-topshiriq.** Berilgan jadval yordamida matn yozing.

Minora haqida ma'lumot

| | |
|--|---|
| Qurilish boshlangan yil | 1978 |
| Teleminora mualliflari | Y.P. Semashko va N.G. Terziyev-Sarukov |
| Konstruktorlar | Y.P. Morozov va M.D. Musheyev |
| Qurilish vaqti | 6 yil |
| Ishga tushirilgan vaqti | 1985-yil 15-yanvar |
| Teleminora balandligi | 375 metr |
| Teleminora poydevorining balandligi | 11 metr |
| Umumiy massasi | 6000 tonnadan ortiqroq |
| Hajmi | 55500 m ³ |
| Qurilishda ishlatilgan materiallari | Payvandlangan po'lat |
| Inshoot mustahkamligini ta'minlash usullari | Har biri 93 metrlik uchta konussimon oyoqlar |
| Tarqatiluvchi davlat telekanallari soni | 4 |
| Tarqatiluvchi davlat radiokanallari soni | 5 |
| Aylanuvchi ikki zalli "Koinot" restorani, balandligi | 120 metr |
| Tomosha maydoni, balandligi | 115 metr |
| Tezkor liftlar soni (tezligi 4,8 m/s dan kam emas) | 3 |

 **4-mashq.** Gaplardagi xatoni tuzating, to'ldiruvchilarni kesim bilan birga ko'chiring.

1. Tikuvchi nonni yopdi. _____
2. O'qituvchi she'rni ifodali o'qidi. _____

3. Novvoy singan javonni tuzatdi. _____
4. Duradgor oshni pishirdi. _____
5. Shifokor bemorni tuzatdi. _____
6. Oshpaz uy qurdi. _____

Shirinsoʻzlik

Insonning tili shirin boʻlsa, uni katta-yu kichik hurmat qiladi, gapiga quloq soladi. Shirinsoʻzlik insonni baxt-saodatga eltadi. Shuning uchun shirinsoʻzlikka yoshlikdanoq oʻrganish kerak.

Shirin soʻz ham, yomon soʻz ham bir ogʻizdan chiqadi.

Soʻzlashish madaniyati orqali kishining odobi, kelib chiqishi, nasl-u nasabi, ota-onasi va ustozining bergan taʼlim-tarbiyasi namoyon boʻladi. Insonning yashashi uchun suv bilan havo qanday zarur boʻlsa, uning maʼnaviy kamol topishida shirinsoʻzlik shunchalik zarur.

Jamoadagi munosabatlarda kishilar bir-birlarini tarbiyalashadi va bir-birlariga moslashadi. Suhbat jarayonida shirinsoʻzlik juda muhim. Buning uchun quyidagilarga rioya qilish kerak:

1. Ishga oid suhbatlarda ovozni balandlatmaslik, jahlgga berilmaslik kerak.
2. Avvalo, maqsadni aniqlashtirib olish kerak.
3. Suhbatlashish uchun qulay paytni topish kerak.
4. Suhbatni boshlashdan avval oʻzaro ishonch ruhini paydo qilish kerak.
5. Suhbat paytida aytilgan muhim axborotlarni kerakli joyga belgilab borish kerak.
6. Maqsadga erishilgach, suhbatni chiroyli soʻzlar bilan yakunlash kerak. Bu holat oʻz-oʻzidan ishning unumli boʻlishiga yordam beradi.



10-topshiriq. Matnga munosabat bildiring.

Qadim-qadimdan maʼlumki, bir ogʻiz shirin soʻz bilan murodga yetganlar, bir ogʻiz achchiq soʻz bilan boshi ketganlar bor.

Hikoya qilinshicha, bir shifokorni tungi navbatchilikda oʻzini yomon his etayotgan bemor yoniga chaqirishibdi. Operatsiyadan keyin shifokor

bemorning ruhan ezilayotganini, uni nimadir qiynayotganini sezibdi. Gapiga quloq solib, oxiri sababini bilibdi. Qandaydir kasalga chalinganlikka gumon qilinib, bemorda jarrohlik muolajasi o'tkazilgan ekan. Biroq tashxis tasdiqlanmabdi. Davolovchi shifokor kunduzi ko'rganida: "Iye, sizni bekordan bekorga chavaqlab tashlashibdi-ku, umringizdan o'n yil qisqardi deyavering", – debdi. O'shandan beri bemor o'zini yomon his qila boshlabdi. "Yaxshiyam, vaqtida operatsiya qilib, o'sha yomon kasalning sizda yo'qligini aniqlashibdi. Kamida bir asrni mo'ljalga olib yashayvering endi. Umringiz uzoq bo'lar ekan", – debdi navbatchi shifokor. Shundan so'ng bemorning ruhi ko'tarilib, kundan kunga sog'aya boribdi.

1. Bemorning og'irlashib qolishiga yoki sog'ayib ketishiga nima sabab bo'ldi?
2. Shifokorlarning yutug'i va kamchiligini misollar bilan tushuntiring.

11-topshiriq. Quyidagi savollar orqali o'zingizni sinab ko'ring.

Nima uchun Toshkent teleminorasini qurishga ehtiyoj tug'ilgan? Sabablarini ko'rsating.

1. _____
2. _____

To'ldiruvchining so'z turkumlari bilan ifodalanishiga misollar keltiring.

1. Ot bilan ifodalangan: _____.
2. Son bilan ifodalangan: _____.
3. Olmosh bilan ifodalangan: _____.

Berilgan gapga mos keladigan javoblardan 3 tasini yozing.

– *Xafa qilgan bo'lsam, kechiring.*

1. _____.
2. _____.
3. _____.



Shirinso'zlikka amal qilgan holda biror masala yuzasidan suhbat matnini tayyorlang.

1-DARS

10-MAVZU. EKOLOGIK MUAMMOLAR (Hol)



1-topshiriq. Eslab qoling va topshiriqlarni bajaring.

Ekologik muammolar

Ekologiya bugungi kundagi eng dolzarb muammolardan biridir. Ekologik muammolar bizni ofatlar va fojialarga qarshi himoyasiz qiladi. Butun dunyoda odamlar ko'plab yangi va murakkab ekologik "muvaffaqiyatsizlikka" duch kelmoqdalar. Ulardan ba'zilari kichik bo'lib, faqat bir nechta ekotizimga ta'sir qilsa, boshqalari esa biz normal deb hisoblaydigan yashash sharoitlarini keskin o'zgartiradi. Jumladan, Ifloslanish havo, suv va tuproqni yaroqsiz holga keltiradi.

Sanoat va avtomobil chiqindilari havoni ifloslantiruvchi moddalarning asosiy manbayi: og'ir metallar, nitratlar va plastmassadan toksinlar. Sanoat korxonalari tomonidan chiqarilgan gazlar va toksinlar qazib olinadigan yoqilg'ilarni yoqish natijasida yuzaga keladi. Suvning ifloslanishi ko'pincha yog'ingarchilik, shahar drenajlari tufayli yuzaga keladi. Yerning ifloslanishi, asosan, tuproqni zarur oziqa moddalaridan mahrum bo'lgan sanoat chiqindilari bilan bog'liq.



2-topshiriq. Matnni o'qing. Savollarga hayotiy misollar asosida javob bering.

1. Bugungi kundagi eng dolzarb muammolar qaysilar?
2. Butun dunyoda qanday muvaffaqiyatsizlikka duch kelinmoqda?
3. Ifloslanish nimalarga zarar keltiradi?
4. Havoni ifloslantiruvchi moddalar nimalardan iborat?
5. Suvning ifloslanishi nima bilan bog'liq?
6. Yerning ifloslanishi-chi?



3-topshiriq. Dialogni davom ettiring.

- Savdo markazi bu yerdan uzoqmi?
- Yo'q, uzoq emas, yaqin.

- U yerga piyoda borsam bo'ladimi?
- Ha, borsangiz bo'ladi.

! **Bilib oling!** Hol fe'ldan anglashilgan harakat-holatning bajarilish yoki bajarilmaslik paytini, o'rnini, tarzini, sababini, maqsadini bildiradi. Hollar *qanday?*, *qay holatda?*, *qay tarzda?*, *qayerda?*, *qayerdan?*, *qayerga?*, *qachon?*, *nima uchun?*, *nega?*, *qancha?*, *necha marta?*, *nima maqsadda?*, *nima sababdan?* kabi so'roqlarga javob bo'ladi. Masalan: Elbek sekin gapirdi.

 **1-mashq.** *Qachon?*, *qayerda?*, *qanday qilib?*, *nima uchun?*, *nima maqsadda?* so'roqlariga javob bo'ladigan so'zlar ishtirokida gaplar tuzing.

 **2-mashq.** Qavs ichida berilgan hollarga savol bering. Nuqtalar o'rniga mos hollarni qo'yib yozing.

(Maktabdan, bog'da, ertalab, betob bo'lganligi sababli maktabga, yiroq-yiroqlardan, Xorazmda, Samarqandda, ostonadan, kutubxonadan, O'zbekistonda.)

1. O'quvchilar _____ qaytishmoqda.
2. _____ gullar qiyg'os gulladi.
3. _____ havo biroz bulut bo'ldi.
4. Saida _____ kelmadi.
5. _____ - _____ azon ovozi eshitilib turardi.
6. _____ tarixiy minoralar va binolar bor.
7. Imom al- Buxoriy _____ yashab o'tgan.
8. _____ onasining mehrlil ovozi eshitildi.
9. Saida _____ kelayotgan edi.
10. _____ yirik korxonalar va zavodlar bor.

 **4-topshiriq.** Quyidagi savollar yordamida o'rtog'laringiz bilan bahs-munozaraga kirishing.

1. Ekologik muammolarning kelib chiqish sabablari nimada?
2. Ekologik muammolar necha turga bo'linadi? Ular qaysilar?
3. Nima sababdan keyingi yillarda yer yuzi isib, iqlim o'zgarib bormoqda?

4. Tabiatdagi o'simlik va hayvon turlari sonining qisqarishiga misollar keltiring.
5. Mintaqaviy ekologik muammolarga misollar keltiring.
6. Mahalliy ekologik muammolarga nimalar kiradi?



5-topshiriq. Yuqoridagi matn yordamida quyidagi jadvalni to'ldiring.

| Ekologiyani buzuvchi omillar | Ekologik muammolarni bartaraf etish uchun nima qilish kerak? |
|------------------------------|--|
| 1. | |
| 2. | |
| 3. | |
| 4. | |



Siz yashaydigan tuman, mahalla yoki ko'chadagi ekologik muammolar haqida yozing.

2-DARS



6-topshiriq. Matnni o'qing. Munosabatingizni bildiring.

Global isish iqlimning keskin va oldindan aytib bo'lmaydigan o'zgarishlariga olib keladi. Global isish okeanlar va yer yuzasining harorati ko'tarilishiga sabab bo'ladi. Qutb muzlarining erishi, dengiz sathining ko'tarilishi, shuningdek, tabiiy ob-havo sharoiti toshqin, bo'ron va aksincha, cho'llanishga olib keladi.

Tabiiy zaxiralarning kamayishi – muqobil energiya manbalarini ishlab chiqmasdan turib omon qolish mumkin emas. Bu qazilma yoqilg'ilarni faol iste'mol qilish bilan bog'liq. Bundan tashqari, bu issiqxona gazlari chiqindilariga va global isishga olib keladi. Shunday qilib, butun dunyoda odamlar quyosh, shamol, biogaz va geotermal energiya kabi qayta tiklanadigan energiya manbalariga o'tishga majbur bo'ladi.



3-mashq. Namunada berilgan hollardan foydalanib gaplarni to'ldiring. Hollarga savol bering.

Soʻzlar: doʻstlarcha, qorovul boʻlib, duv, havas bilan, qanday, boshini eggan holda.

1. Rais bilan ikkisi _____ xayrlashdi.
2. U _____ turdi.
3. Daraxt barglari _____ toʻkildi.
4. Buni _____ bajarasiz.
5. _____ kelardi.
6. Mevalar _____ terildi.

Muomala odobi: Jamoat joylarida oʻzini tutish madaniyati

Jamoat joylarida biz yolgʻiz boʻlmaymiz. Oʻzaro hurmat, iltifot va xushmuomalalik – koʻchada oʻzini tutishning asosiy ustunlaridir. Shuning uchun quyidagi odob-axloq qoidalariga rioya qilishga toʻgʻri keladi.

Mumkin emas:

- suhbatlashayotganda saqich chaynash, biror narsaga yopishtirish;
- biror kishi yoki binoni qoʻl bilan koʻrsatish;
- yurib ketayotib narsa yeyish, ichish, chekish;
- baland ovozda kulish, baqirish, yigʻilishlarda oyoqni tapillatish;
- koʻchada imo-ishoralar qilish;
- binoga yemak va ochiq shisha idishlar bilan kirish;
- belgilangan uchrashuvga kechikib kelish;
- katta yoʻlning chetida va oʻrtasida yurish.

Zarur:

- yoshi kattalar, ayollar, bolalar, nogironlarni oldinga oʻtkazish;
- koʻchani kesib oʻtishiga, transportga oʻtirishiga yordamlashish;
- koʻchada ketayotganda yoʻlning oʻng tomonidan yurish;
- agar kimnidir turtib yuborilsa, xushmuomalalik bilan uzr soʻrash;
- ayol kishi bilan ketayotgan boʻlsangiz, uning yuklarini koʻtarishga yordam berish.

 **7-topshiriq.** Yuqorida jamoat joylarida oʻzini tutish qoidalarining bir qismi berildi. Shunga koʻra doʻkonda, transportda yurish qoidalariga misollar keltiring.

8-topshiriq. Munosabat bildiring.

...Atrof-muhitning tozaligini ta'minlash, avvalo, o'zimizga bog'liq. Tog'lardan keladigan suv tiniq, sof bo'ladi. Lekin yo'l-yo'lakay ba'zi kimsalarning o'ylamay oqovalarni, chiqindilarni tashlashlari natijasida suvlarimiz ifloslanadi. Bolalar, kishilar shu kelayotgan suvlarda cho'miladilar va turli kasalliklarga chalinadilar...

Afsuski, bugungi kunda bunday holatni hamma joyda kuzatish mumkin.

Ayting-chi, siz shunday holatning guvohi bo'lganmisiz? Misollar keltiring.

9-topshiriq. Munosabat bildiring.

Olam yaratilibdiki, hali-hanuz uning sir-sinoati oldida hamma tiz cho'kadi. Nima uchun "tabiat" so'zi oldiga "ona" so'zini qo'shib ishlatamiz?! Balki tabiat bizga, butun insoniyatga, hattoki mayda hasharotlargacha mehribonlik qilib, to'ydirib, ichirgani uchundir. Shuning uchun har bir inson bu go'zallik makoniga ehtiyotkorona munosabatda bo'lishi kerak.

Tabiat... Bu bizga berilgan shunday bir ulug' ne'matki, u bo'lmaganida, biz bunday hissiyotli, nafis va sog'lom bo'la olmas edik. Lekin, bir o'ylab ko'ring-chi, biz o'zimiz shu go'zallikka, ya'ni ona tabiatga ziyon yetkazmayapmizmi?!

Hozirgi davrga kelib, har bir yurtning, mamlakatning eng katta maqsadi, muammosi ona tabiatni kelajak avlodga yaxshi, go'zal holda qoldirishdir.

Savollar:

– Ona tabiatga ziyon yetkazish deganda nimani tushunasiz? Misollar keltiring.

– Tabiatni asrash uchun nima qilish kerak?

 **Atrof-muhitni muhofaza qilish uchun quyidagilarga e'tibor berish kerak. Quyida berilgan muammolardan biriga fikringizni yozma bayon qiling.**

1. Suvning ifloslanishiga sabab bo'luvchi omillar.
2. Global isishning oqibati.
3. Ekologik muammolarni bartaraf etish bo'yicha takliflar.

1-DARS

11-MAVZU. MADANIYATLI INSON (Holat holi)



1-topshiriq. Tinglang va misollar bilan matnni davom ettiring.

Har bir fuqaro, u uyda bo'ladimi, ko'cha-ko'ydami, ishxonadami yoki transportdami, avvalo, tartib-intizomga amal qilishi lozim. Tartibli bo'lish uchun esa madaniyatli bo'lish kerak. Madaniyatli inson har doim hamma joyda intizomga, qonun-qoidaga amal qiladi...



2-topshiriq. Madaniyatli inson qanday bo'lishi lozim? Do'stingiz bilan suhbatlashing.



Bilib oling! Holat holi ish-harakatning qay tarzda bajarilganini bildirib, *qanday?*, *qanday qilib?*, *qanday ahvolda?* so'roqlariga javob bo'ladi. Masalan: **Avaylab** kesdi. **Tez** yurdi. **Piyoda** ketdi.



1-mashq. Berilgan hollarga savol bering. Nuqtalar o'rniga mos holat hollarini qo'yib gaplarni yozing.

Oson, to'g'ri, soz, yig'laganicha, sekin, diqqat bilan, shoshmasdan

1. _____ yursang, murodingga _____ yetarsan.
2. Ko'p so'zlama, oz so'zla, oz so'zlasang ham _____ so'zla.
3. Hamdam ikkovini ham bilmadi va _____ narigi uyga kirib ketdi.
4. U o'ychan ko'zlari bilan Botirga qarab _____ gapirdi.
5. U _____ tingladi.
6. U _____ jo'nadi.



2-mashq. O'qing. Gaplarda holning qaysi turi qo'llanganini aniqlang va ko'chiring.

1. Shoir she'ni ifodali o'qidi.
2. Hammamiz shoirni miriqib tingladik.
3. Onam ishdan kelib shosha-pisha ovqatga unnadi.
4. Singlim bo'lgan voqeani oqizmay-tomizmay aytib berdi.
5. Do'st achitib, dushman kuldirib gapirar.
6. Bobom albomni varaqlagancha xayolga cho'mdi.

 **3-topshiriq.** Har ikkala matndagi holatni taqqoslang va 3 tadan asosiy sabablarini ko'rsating.

Mana, ro'parangizda, did bilan kiyingan bir "go'zal" qiz yumshoq divanda oyoqlarini chalishtirib sigareta chekib o'tiribdi. U sigareta kulini nariroqdagi kuldonga to'kishga erinib, oyoqlari ostidagi ipak gilamga qoqyapti. Xonada o'zidan katta odamlar bor, ular orasida odob saqlash zarur. Ammo "go'zal" bunga e'tibor qilmaydi. Sharaqlab kuladi. Mobil telefonida bo'lar-bo'lmas gaplarni gapiradi. Shu payt xonaga bir chol bilan kampir kirib keldi. Ular xalq xizmatida keksaygan. Ularni ko'rganda o'tirganlar duv o'rinlaridan turib, to'rga taklif qildilar. "Go'zal" esa ularning oq sochlari hurmati uchun o'rnidan qo'zg'alib ham qo'ymadi...

Jamiyatimizda madhini doston qilsa arzigulik ajoyib oilalar ko'p. Yon qo'shnimiz faqat mahallamizdagina emas, butun shaharda hurmatli odam. Bunday katta hurmatga sazovor bo'lishiga, avvalo, uning o'zi, odobi, ayniqsa, odamshavandaliigi sabab bo'ldi. U uyida oila a'zolari orasida, ko'chada, ya'ni el-yurt o'rtasida, ishda jamoada o'zini bir xilda tutadi. O'zini tutishida soxtalik yo'q. Muhitidagi odamlarning hammasiga bir xil hurmat, bir xil munosabatda bo'ladi. Kattani katta deb yaltoqlanmaydi, kichikni kichik deb dimog'ini ko'tarmaydi. Yana bir ajoyib fazilati shundaki, ish tanlamaydi, qanday ish bo'lsa, darrov qo'l uradi. Bu oilada er ham, xotin ham davlat idoralarida ishlaydi. Qaysi biri oldinroq kelsa, uy ishini saranjomlab qo'yadi. Bordi-yu, birontasi tashqi sabab bilan xafa ko'rinsa, ikkinchisi darrov joniga ora kiradi. Mana 20 yildan ortiq qo'shnicilik qilsak-da, biron marta bu oiladan nojo'ya ovoz chiqqanini bilmaymiz.

 **4-topshiriq.** Munosabat bildiring.

Kamtarlik

Kishilar hadeb Majnuntol oldiga kelaverganidan Mirzaterakning g'ashi kelib, takabburlik bilan:

– Yonimga savlatimdan hayiqib, uncha-muncha odam kela olmaydi. Senga hayronman, oldingdan odam arimaydi, yo seni nazar-pisand qilishmaydimi? Buning ustiga qo'shiqqa solganlariga balo bormi? – dedi.

– Sen, – javob berdi unga Majnuntol, – kibr-u havo bilan osmonga intilasan. Soyang ham o'zingga yarasha. Men bo'lsam, o'zimni voyaga yetkazgan zamin bilan qattiq bog'lanib, unga hurmatda-yu, ta'zimda bo'laman. Yonimga ko'plab kishilarning kelishi, balki o'sha kamtarligimdandir. Sen kibrni kasb

qilib olib, manmanlikka berilmaganingda edi, bunchalik e'tibordan qolmagan va oxiri kesilib, oyoq ostiga tushmagan bo'lar eding.

Savollar:

1. Kamtarlik deganda nimani tushunasiz?
2. Manmanlik qanday oqibatlarga olib keladi? Misollar keltiring.



5-topshiriq. Matnni o'qing va munosabat bildiring.

ODAM BO'LMAYSAN

(Hikoyat)

Bir keksa kishi o'g'lining yomon xulqini ko'rib: "Sen odam bo'lmaysan", der edi. O'g'li badfe'l va kibrli edi. U otasining so'zlaridan qattiq ranjidi va uyini tashlab chiqib ketdi. Yurtdan yurtga o'tib, nihoyat bir viloyatga hokim bo'ldi. Shunda qishloqda qolgan otasini esladi. Uning so'zlari hali ham qulog'ida jaranglab turardi. Soqchilarga: "Falon qishloqdagi cholni olib kelinglar", – deb buyurdi. Soqchilar qishning ayozli kunlarida tog'lar oshib, hokimning buyrug'ini bajarish uchun qishloqqa kelishdi. Keksa kishini uyida, o'choq boshida titrab isinib o'tirganini ko'rishdi. Unga:

– Tur o'rningdan, hokim seni olib kelishimizni buyurdi, – deyishdi. Qariya hayron bo'lib:

– Bolam, mening hokimlar bilan ishim yo'q, – dedi. Uni majburlab hokimning huzuriga olib kelishdi.

Taxtiravonda o'tirgan o'g'il otasiga qarab:

– Meni taniyapsizmi? – dedi kibr bilan. Chol xiralashgan ko'zlari bilan qarab:

– Taniyolmadim, – dedi.

– Men siz odam bo'lmaysan, deb aytgan o'g'lingizman. Mana, hokim bo'ldim, hamma mening amrimga muntazir.

– O'g'lim, men senga hokim bo'lolmaysan, deb aytmagandim, – dedi keksa kishining ko'zlari yoshlanib, – odam bo'lolmaysan, degan edim. Agar sen odam bo'lganingda padaringni bunday qahratonda soqchilaringga sudratib keltirmay, o'zing ziyorat qilgani borgan bo'larding. Odam bo'lish mansab bilan o'lchanmaydi, u qalbning tozaligi bilan o'lchanadi.

Bu hikoyat bizga insonning haqiqiy libosi qanday bo'lishi lozimligini ko'rsatadi. Inson qanchalar go'zal kiyinib, o'ziga oro bermasin, uning qalbi imon, tavoze, nazokat kabilar bilan bezanmasa, haqiqiy inson bo'lolmaydi.

Qissadan hissa: Insonning qadri qalbining go'zalligi bilan o'lchanadi.

 **“Madaniyatli inson” menimcha.... bo‘lishi kerak. Fikringizni misollar bilan bayon qiling.**

2-DARS

 **6-topshiriq. Eslab qoling.**

Kiyinish madaniyati

Kiyinish madaniyati – insonning go‘zallik, nafosat, odob borasidagi qarashlarini ifoda etadi. Afsuski, ko‘p hollarda bugungi yigit-qizlarimizning kiyinish madaniyati haqida ijobiy fikr bildirish qiyin. Chunki ko‘p yoshlarimiz yevropacha uslubda kiyinmaslikni zamondan ortda qolish, deb hisoblashadi. Bu fikrning mutlaqo noto‘g‘ri ekanligi haqida o‘ylab ham ko‘rishmaydi. Aksincha, ular o‘zlarining ma‘naviyati, dunyoqarashi qanchalik sayoz ekanligini “zamonaviy” liboslari orqali namoyon etishmoqda. Aslida insonning madaniyatga xos kiyinish uslubi uning ma‘naviy olami qanchalik boy ekanligini namoyon etuvchi muhim omil hisoblanadi. Afsuski, ota-onalar orasida farzandlarining kiyinishiga befarq qaraydiganlar talaygina.

Kiyinish borasida nafaqat qizlarimiz, balki yigitlarimiz ham tobora “zamonaviylashib” borishyapti. Har xil bema‘ni yozuv va rasmlar tushirilgan futbolka, kalta shim va shippaklarda ko‘chani to‘ldirib yurishgani ayni haqiqat. Sigaret chekayotgan odam skeleti rasmi solingan futbolkalarni kiyishga ishtiyoqmand o‘zbek yigitlarining bu ishlari o‘zbekona madaniyatimizga to‘g‘ri kelmasligini anglay olishmayapti. Tasavvur qilib ko‘ring: kalta shim va futbolka kiyib olgan ota yoki egniga tor va ochiq libos kiygan onangiz bilan ko‘cha-ko‘yda birga yura olarmidingiz?

(G‘. Xidirov)

 **3-mashq. Namunada berilgan holat hollariga savol bering. Nuqtalar o‘rniga mos hollarni qo‘yib yozing.**

Namuna: zo‘rg‘a, mardonavor, nochor, yengil, darrov, noiloj.

1. U istamasa ham _____ bajarishga majbur bo‘ldi.
2. Muallim _____ xayrlashdi.
3. Daladan charchab kelgan yigit _____ uxlab qoldi.

4. Ular qushdan ham _____ uchardilar.
5. U o'zini _____ bosib oldi.
6. Vatan uchun _____ jang qilganlar safida edi.

7-topshiriq. Savollar yordamida sinfdoshlaringiz bilan bahsmunozara o'tkazing.

- Sizningcha, chiroyli kiyinish qanday bo'ladi?
- Qulay kiyim qanday bo'lishi kerak?
- Nima uchun maktablarda forma kiyiladi?
- Sizni anjumanga taklif etishdi, qanday kiyinib borar edingiz?
- Ko'chada tizzasi yirtilgan shim, har xil rasmlar solingan maykada yurish yaxshimi?
 - Qizlarning tor shim, ochiq-sochiq yurishi to'g'rimi?
 - Yigitlarning ko'cha-ko'yda kalta shim (shorti), oyog'iga shippak kiyib olishi-chi?

8-topshiriq. Matnni o'qing va munosabat bildiring.

Menga zamonaviy kiyinish yoqadi. Shuning uchun maktabga ham ba'zan formada emas, o'zim istagandek kiyinib boraman. Buning uchun o'qituvchilarimizdan ko'p tanbeh eshitaman. Ota-onam esa buni oddiy hol deb bilishadi. Uyda otam, onam ham shorti-maykada yurishadi. Kunlarning birida sinf rahbarimiz Aziz Alimov ota-onam bilan suhbatlashish uchun uyimizga tashrif buyurdi. Onam har doimgidek uyda yurgan holatda ustozni qarshi oldilar. Ustozimiz salom-alikdan so'ng uzr so'rab, qaytib ketdilar.

Bu voqeadan men juda uyaldim....

Dilozorlik

Qo'pol muomala, ayniqsa, dag'al so'z bag'ri qattiq, fahmsiz odamni ham ranjitmay qo'ymaydi. Dili ozor topgan odam soatlab, balki kunlab o'ziga kelolmay, qo'li ishga bormay yuradi. Demak, qo'pol so'z yoki xunuk muomala inson dilini og'ritish bilan birga, jamiyat ishiga ham zarar keltirar ekan. Ba'zi tajang, muomalasi qo'pol, so'zi sovuq odamlarning shu kamchiliklari o'zlariga aytilsa, ular yo dilingizni siyoh qilishadi yoki asab joyida emas, deb o'zlarini oqlashga tushishadi. Aslida kasallik emas, odamning o'zi, uning xulq-atvori aybdor. Bunday odamlar

og'izlaridan chiqqan har qanday dag'al so'z boshqaga og'ir botishi, ba'zan fojia bilan tugashini o'ylamaydilar.

Xalqimizda shunday maqol bor: Yomon o'zini bilmaydi, o'zgani ko'zga ilmaydi.



9-topshiriq. Savollar bo'yicha o'zaro bahslashing.

- Dilozorlikka yana nimalar kiradi? Misollar keltiring.
- Aytaylik, Sizni nohaq haqorat qilishdi, o'zingizni qanday tutgan bo'lar edingiz? Faqat rostini ayting.
- Sizni xafa qilganlarni kechira olasizmi? Yoki aksincha, o'zingiz xafa qilganlardan kechirim so'ray olasizmi? Qanday qilib?



10-topshiriq. Masalni o'qib, mazmunini so'zlab bering.

VARRAK

I.A.Krilov

M.Xudoyqulov tarjimasi

O'yinchoq Varrak
Uchirilgan edi osmon-falakka,
Yuqoridan pastga gerdayib qarab
Ko'zi tushdi gulda bir Kapalakka.
“Qara-ya, ko'ryapman men seni elas, –
Deya qichqirdi u, – albatta, sen ham –
Mendayin uchishni qilarsan havas?”
“Hech havas qilmayman, rostini aytsam, –
Der Kapalak unga, – maqtanma bekor.
To'g'ri, sen o'ynaysan balandda uchib,
Ammo bil, burningdan o'tkazilgan ip.
Bunday hayot esa – hayotmas zinhor.
Joyim pastroqdadir, garchi, men esam
Bemalol uchaman qayga xohlasam,
Men senga o'xshab birovning bema'ni ermagi uchun
Pirillab uchib, qilmayman umrimni behudaga sarf”.



“Men kiyinishni yoqtiraman, chunki...” fikringizni bayon qiling.

1-DARS

12-MAVZU. DUNYO MO'JIZALARI (Payt holi)



1-topshiriq. Eslab qoling va topshiriqlarni bajaring.

Dunyoda go'zal makonlar, tomosha qilishga arzigulik maskanlar juda ko'p. Qaysi davlatga bormang, albatta, uning o'ziga xosligini ifodalovchi me'moriy obidaga ko'zingiz tushadi. Dunyo mo'jizalarga boy. Biz ulardan ba'zilari bilan sizni tanishtiramiz.

Mongoliyada "Ulkan chavandoz" – bu albatta, Chingizxon. Agar otning boshiga diqqat bilan qarasangiz, undagi qora chiziqlarni ko'rasiz. Bular kuzatish maydonidagi odamlar. Lift otning orqa qismiga joylashgan. Haykalning balandligi 40 metr bo'lib, u 250 tonna zanglamaydigan metall bilan qoplangan. Bugungi kunda u dunyodagi eng baland ot haykalidir.

Londondagi Big Ben mashhur soati, Bukengem saroyi, Tauer ko'prigi butun dunyoga mashhur.

Xitoy – juda ko'p tarixiy yodgorliklarga boy mamlakat. Bulardan Buyuk Xitoy devori, Yozgi saroy, Osmon qasri va Xitoyning ajralmas mo'jizasi – Pekin operasi Pekinda joylashgan.



2-topshiriq. O'zingizni sinab ko'ring. Matnga qaramasdan quyidagi obidalarning qaysi mamlakatga tegishli ekanini yozing.

- Yozgi saroy –
- Buyuk Xitoy devori –
- "Ulkan chavandoz" haykali –
- Pekin operasi –
- Big Ben mashhur soati –
- Bukengem saroyi –
- Osmon qasri –
- Tauer ko'prigi –



3-topshiriq. Dunyodagi yana qanday mo'jizalarni bilasiz? Ularning ro'yxatini yozing.

 **Bilib oling!** Payt holi ish-harakat yoki holatning bajarilish paytini bildirib, *qachon?*, *qachongacha?*, *qachondan beri?*, *qay vaqt?* so'roqlariga javob bo'ladi. Masalan: Kecha majlis bo'ldi. Bugun futbol o'ynaymiz.

 **1-mashq.** Gapdagi holning turini aniqlang va so'rog'ini qo'yib ko'chiring.

1. Yig'ilish uchda bo'ladi. _____
2. Qaytishda siznikiga kirib o'tamiz. _____
3. Nafasimni rostlagach, tikilibroq qaradim. _____
4. Shunda men bir sapchib tushganman. _____
5. Bugun maktabim yonidan o'tdim. _____
6. Imtihonlar yozda bo'ladi. _____

 **2-mashq.** Nuqtalar o'rniga kerakli so'zlarni qo'yib gaplarni ko'chiring.

So'zlar: bir ozdan keyin, kelgach, oradan ko'p vaqt o'tmay, hozir, atayin, bugun.

1. _____ albatta, sizni ko'rgani boraman.
2. _____ sizni izlab kelgan edim.
3. Otam _____ kelib qoladilar.
4. _____ yaxshi ko'rsatuv boshlanadi.
5. Alisher _____, yo'lga tushamiz.
6. _____ avtobus ko'rindi.

  **4-topshiriq.** Matnни tasavvur qiling va so'zlab bering.

TOJMAHAL – Hindistondagi boburiylar sulolasi davriga oid me'moriy yodgorlik (1631–52). Agra shahri yaqinidagi Jamna daryosi bo'yida Shoh Jahon suyuqli xotini Arjumandga (Mumtoz Mahal begim) atab qurdirgan.

Maqbara turk me'mori Muhammad Isoxon afandi boshchiligida bunyod etilgan. Tojmahal murabba tarhli, 3 qavatli, 5 gumbazli. Marmar supa ustiga qurilgan. 4 burchagidagi ingichka minoralar maqbaraga o'zgacha husn bag'ishlagan. Devorlari oq marmar bilan qoplangan, turli rangdagi qimmatbaho toshlar (haqiq, marvarid, sadaf, kahrabo, zumrad, yoqut, fil

suyagi va boshqalar)dan qadama naqshlar ishlangan. Bosh tarzi peshtoq ravoqli. Maqbaraning old tomoniga 2 qator daraxtlar ekilgan, favvorali hovuz, gulzorlashtirilgan uzun yo'lka bor. Zinapoyalar bilan marmar supaga chiqib, o'yma naqshli eshikdan maqbaraga kiriladi. O'rtadagi katta gumbazli xonada qora marmar sag'ana (Shri Lankadan keltirilgan) qo'yilgan. Mahobatli bino qurilishida nafaqat Hindiston, balki O'rta Osiyo, Eron, Vizantiya me'morlarining o'ziga xos uslublari o'z ifodasini topgan. Maqbara qurilishida kandahorlik g'isht teruvchi Muhammad Xanif, multonlik Muhammad Sayid, minorada mahalliy usta Ismoilxon Rumiy, samarqandlik Muhammad Sharif, lohurlik Kozimxonlar hamda ko'pgina naqqosh va xattotlar qatorida buxorolik Otamuhammad va Shukur naqqoshlar qatnashgan. Binoning asosiy zinapoyasi o'rta osiyolik Bekzod hunarmand tomonidan loyihalashtirilgan.

5-topshiriq. Berilgan savollar asosida o'zaro suhbatlashing.

Savollar:

1. "Xeros ehromi" qayerda joylashgan?
2. "Zevs haykali" qayerda edi?
3. Dunyoning uchinchi mo'jizasi qaysi?
4. Geliosning bronzadan ishlangan Koloss Rodoskiy haykali nechanchi mo'jiza hisoblanadi?
5. Dunyoning yettinchi mo'jizasi nima?

Dunyoning yetti mo'jizasi haqida ma'lumot yozing.

2-DARS

6-topshiriq. Diqqat qiling. Eslab qoling.

NAVOIY TEATRI

Alisher Navoiy nomidagi davlat akademik katta teatri — opera va balet san'ati sohasidagi O'zbekistonning asosiy teatri. Teatr binosi 1947-yilda qurib bitkazilgan (me'mor A.Shusev loyihasi asosida). Bino bezagida T. Arslonqulov, A. Boltayev, Q.Jalilov, S.Norqo'ziyev, Usta Shirin Murodov, Jalil va Bolta Jo'rayevlar qatnashgan. Bino tarzi va interyerini bezashda milliy me'morlik an'alaridan foydalanilgan. Devorlarida Ch.Ahmarovning

A.Navoiy asarlariga ishlagan miniatyuralari aks etgan. Bino tarzlari peshayvon shaklida ravoqlar (3 old, 2 yon tomonlaridagi ravoqlar 9 ta) qatoridan iborat. Foye, tomosha zali, sahna va boshqalar 3-qavatga joylashgan. Bezaklarida Buxoro me'morlik maktabi ganchkorlarining bezaklari; toshkentlik ustalarning ravoqlari, guldasta bezaklari; xivalik ustalarning marmar, naqsh, yog'och o'ymakorligidagi o'ziga xos uslublari; samarqandlik ustalarning bo'rtma, muqarnasli jozibador lavhalari, farg'onalik ustalarning o'simliksimon bezaklari; termizlik ustalarning unutilib ketgan mayda davra va jingalak tasvirli o'ymasi yangidan jonlantirilgan. Binoning pastki zalidagi devoriy rasmlarda musiqa, raqs, she'riyat va rassomlikni ifodalovchi majoziy obrazlar (go'zal ayollar) tasvirlangan. Bino foyelariga O'. Tansiqboyev, M. Arinin, K. Cheprakov va boshqalar qo'shimcha devoriy rasmlar ishlaganlar. Tomosha zali 760 o'rinli.

1948-yil Toshkent rus opera teatri bilan birlashib, Alisher Navoiy nomini oldi. Unga 1959-yilda "Akademik", 1966-yilda "Katta teatr" unvonlari berildi.



7-topshiriq. O'zingizni sinab ko'ring. Savollarga javob bering.

1. Navoiy teatri kimning loyihasi asosida qurilgan?
2. Binoni bezashda kimlar qatnashgan?
3. Binoda viloyatlarning qanday bezaklaridan foydalanilgan?
4. Bino foyelaridagi devoriy rasmlarni kimlar ishlagan?
5. Bino qachon Alisher Navoiy nomini olgan?
6. Binoga qachon va qanday unvonlar berilgan?



3-mashq. Nuqtalar o'rniga kerakli so'zlarni qo'ying. So'zlarning turkumini aniqlang va ularning so'rog'ini ayting.

1. _____ choy damlab ichgani ham erinasan kishi.
2. Mard o'g'lonlarimiz faqat _____ intilmoqdalar.
3. _____ o'yla, _____ so'yla.
4. _____ gilos qiyg'os gulladi.
5. _____ yirik-yirik yulduzlar bilan to'lgan osmonga tillaqoshdek ingichka oy suzib chiqardi.
6. Biz _____ muzeyga bordik.

So'zlar: erta bahorda, keyin, avval, ertalab, bugun, kecha, oldinga.

 **8-topshiriq.** O'zbekistonda mo'jizalar bormi? Ularning ro'yxatini yozing.

 **4-mashq.** Gaplarni ko'chiring. Gapda holning qaysi turi qo'llan-ganini ko'rsating.

1. Xotira bog'ining ochilishi tantanali o'tkazildi. _____.
2. Bahor oylari bilinmay o'tib ketdi. _____.
3. Kechqurun hamma dasturxon atrofiga yig'ildi. _____.
4. Bir necha kundan so'ng akam harbiy xizmatdan qaytadi. _____.
5. Havoning o'zgarishi sababli sayohat qoldirildi. _____.
6. Bu asarni uch marta o'qib chiqdim. _____.

 **9-topshiriq.** Dialogni o'qing. Xohlagan mavzuda dialog tuzing.

- Men aeroportga bormoqchiman. Hozir to'g'ri ketayapmanmi?
- Ha. Siz to'g'ri ketayapsiz.
- Men qaysi bekatda tushishim kerak?
- Mana shu bekatda.

Sayohat odobi

Sayohatga chiqqanda belgilangan tartib-qoidalarga amal qilish kerak.

Ekskursiyada: Gidning so'zlarini diqqat bilan tinglang. Agar sizga yoqmasa, jahlingiz chiqmasin, ekskursiya rahbari bilan tortishib ketish yaxshi emas. Guruhning boshqa a'zolari bilan baland ovozda gaplashmang, tanaffusda ekskursiya boshlig'iga savollaringizni bering. Ekskursiya oxirida gidga minnatdorchilik bildiring.

Muzeyda: Muzeyga boradigan bo'lsangiz oldindan tayyorgarlik ko'ring. Muzey katta bo'lsa, unda aynan nimalarni ko'rmoqchi ekanligingizni aniqlab oling. Muzey va ko'rgazmalarda bosh kiyimni yechib, garderobda qoldirishingiz, sumkalarni saqlash xonalariga berishingiz mumkin. Ekspozitlarni tomosha qilishda ularga juda yaqin borish, qo'l bilan tegish mumkin emas. Tomosha davrida sherigingiz bilan fikr almashayotganda sekinroq gapiring. Suhbatingiz hech kimga xalaqit bermasin. Mobil telefoningizni o'chirib qo'ying.



O'zbekistonning 7 mo'jizasini aniqlang. Ulardan biri haqida ma'lumot yozing.

1-DARS

13-MAVZU. MEHNATNING QADRI (O'rin holi)



1-topshiriq. Topshiriqlarni bajaring.

Mehnatda o'tgan bolalik va kattalar tarbiyasi

Jeff to'rt yoshligidan boshlab yozgi ta'tilni bobosining fermasida o'tkazgan. O'n ikki yil davomida u har yozda shu fermada mehnat qilgan. U bobosidan ko'p narsani, jumladan, zarur paytda o'zi uchun kerakli biror jihozni mustaqil yarata olish ko'nikmasini ham o'rganib olgan.

Jeffning fikricha, bobosi va buvisidan tarbiya olish bolaning kelajagi yorqin bo'lishiga juda katta ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, bobosining "hayotda aqlli bo'lishdan ko'ra oliyanob bo'lish qiyinroq" kabi fikrlari uning dunyoqarashini o'zgartirib yuborgan...

Jeff Bezos hayotda qanchalar oliyanob bo'lsa, ishda shu qadar qattiqqo'l bo'lgan. Amazon kompaniyasida 350 ming xodim faoliyat ko'rsatgan. Milliarder xodimlariga "Vaqtimni nega o'g'irayapsan?", "Sen yalqovmisan yoki o'z ishingga nomunosibmisan?" kabi savollarni tez-tez bergan. "Har ish kuningni ilk ish kuning kabi ishtiyoq bilan boshla". Bu Jeffning sevimli shiori.

Bezos chaqqon harakatlari, xodimlarini g'ayratli bo'lishga chorlashi, ilg'or fikrlarni rag'batlantirishi bilan nom qozongan. Uning muvaffaqiyat siri yangi texnologiyalarni o'rganishga bo'lgan xohishi, mehnatkashligi va yo'lboshchilik qobiliyati bilan bog'liq.



2-topshiriq. Berilgan savollar asosida o'zaro suhbatlashing.

1. Jeffning milliarder bo'lishining 3 ta sababini ayting.
2. Bezosning xodimlariga bergan savollarini, shiori hamda muvaffaqiyat siri nima bilan bog'liqligini aniqlab, tushuntirib bering.
3. Siz kelajagingizni qanday tasavvur qilasiz? Shu mavzuda oilada ko'proq kim bilan maslahatlashasiz?



O'rin holi ish-harakatning bajarilish o'rnini bildirib, *qayerga?*, *qayerda?*, *qayoqqa?*, *qayerdan?* kabi so'roqlarga javob bo'ladi. Masalan: *Biz olg'a yurdik. Olimjon orqada qoldi.*



1-mashq. Namunada berilgan o'rin hollaridan foydalanib, gaplarni to'ldirib yozing.

Namuna: *tevarakda, ko'chaga, Samarqandda, Toshkentga, shu yerdan, uy ichida, orqadan.*

1. Bolalar chiqib ketishdi.
2. U qochdi.
3. Poyezd bizni qoldirib, yo'l oldi.
4. boshlanur daryo va quyosh.
5. odam ko'p edi.
6. gala-gala chumchuqlar to'xtovsiz chirqillashadi.



3-topshiriq. Dialogni o'qing va do'stingiz bilan suhbatlashing.

- Kechirasiz, bu shahar markaziga boradigan to'g'ri yo'lmi?
- Yo'q. Siz 3-avtobusga o'tirishingiz kerak.
- Qaysi tomonga qarab yurishim kerak?
- Mana bu joyda yerosti o'tish yo'lkasi bor. Ko'chaning u tomoniga o'ting-da, bekatda avtobusni kuting.



4-topshiriq. Savollarga mantiqan yondashib javob bering.

... Mehnat, asosan, ikki turli bo'ladi: aqliy mehnat va jismoniy mehnat. Insoniyat qo'l va boshqa a'zolari yordamida jismoniy kuch sarflab amalga oshiradigan ishlar jismoniy mehnatni tashkil qiladi. Jismoniy mehnatni aqliy mehnatdan ajratgan holda tushunish mumkin emas. Jismoniy mehnat aql yordamidagina mazmunli, sifatli va mahsuldor bo'ladi. Aqlli odam ketmon chopsa ham, zavod va fabrikada biror jismoniy vazifani amalga oshirsa ham uning ishi yaxshi natija beradi. Aql aralashmagan ishning mahsuli bo'lmaydi.

Aqliy mehnat egalari o'qituvchilar, shifokorlar, olimlar va boshqalar bo'lib, ular ma'naviyat egalari. Agar jismoniy mehnat egalari jamiyatni iqtisodiy tomondan ta'min etishsa, aqliy mehnat egalari insoniyatning ma'naviy boyishiga xizmat qiladilar.

O'quvchi esa aqliy mehnat egasi bo'lib, u hamisha o'qiydi, yozadi va o'z ma'naviy olamini boyitish yo'lida mehnat qiladi. Oilada, jamoat orasida jismoniy mehnat bilan shug'ullanishiga to'g'ri keladi...

Savollar:

1. Kimlar aqliy mehnat, kimlar jismoniy mehnat bilan shug'ullanishini aytib bering.
2. Aqliy mehnat egalarining jismoniy mehnat qilishlariga misollar keltiring.
3. Nima uchun o'quvchilarni aqliy mehnat egasi deyishadi?
4. Sizingcha, onangiz qaysi mehnat egasi hisoblanadi? Fikringizni misollar bilan isbotlang.



O'qituvchi bilan shifokorning o'xshash va farqli tomonlari nimada? Hayotiy misollar keltiring.

2-DARS



5-topshiriq. Savollarga javob bering.

Odam bolasining umri bittalab g'isht terib ko'tarilgan binoga o'xshaydi. Binoning mustahkamligi, uzoq umr ko'rishi g'ishtning pishiq terilishi hamda poydevorining sifatiga bog'liq. Metin poydevorga o'rnatilgan bino qanchalik mustahkam bo'lsa, yoshlikdanoq biror hunar yo kasb etagini mahkam ushlab olgan yigit-qizlarimiz ham hayotdan o'sha bino kabi uzoq vaqt savlat to'kib o'tishadi. Ammo inson savlati har qanday binolar hashamatidan baland. Chunki u hashamati bilan ko'zni qamashtiruvchi ko'p qavatli binolarnigina emas, fazoga uchirilayotgan mo'jiza kemalarni ham yaratuvchi, ijod qiluvchi, sayqal, bezak beruvchi aqlli, irodali kuchdir.

Savollar:

1. Nima uchun inson umri binoga o'xshaydi?
2. Matndan "Inson savlati har qanday bino-yu hashamatdan baland" gapini aniqlang va mazmunini mantiqan tushuntirib bering.
3. Siz inson umrini yana nimalarga o'xshatgan bo'lar edingiz?



2-mashq. Berilgan hollarga savol tuzing. Nuqtalar o'rniga mos o'rin hollarini qo'yib gaplarni yozing.

O'rin hollari: chap tomonida, o'zga yurtda, osmonda, g'azal, o'z yurtingda, bunda, har yerni, hamma yerda, derazadan, bunda, qulog'i ostida, har yerda, tog'dan.

1. _____ qilma orzu, _____ bor tosh-u tarozu.
2. Xiyobonning _____ kutubxona joylashgan.
3. _____ bulbulning shirin kuylari hamisha jaranglab turardi.
4. _____ bulbul kitob o'qiydi, _____ ari keltiradi bol. (*H. Olimjon*)
5. Karima _____ boshini chiqarib, ularga qarab qo'ydi.
6. _____ sanoqsiz yulduzlar charaqlaydi.
7. Tirmashgan _____ oshar.
8. _____ shoh bo'lguncha, _____ gado bo'l.
9. Istadim sayr aylamoqni, men _____ bo'stonida.



6-topshiriq. Matn asosida do'stlaringiz bilan suhbatga kirishing.

... Hunar tanlash borasida bugungi yoshlarga katta imkoniyatlar berilgan. O'tmishda ota-bobolarimiz davrida kasb-hunar doirasi juda tor edi. Taqachi, temirchi, aravasozi, tunukasozi, soatsozi, bo'zchi, chilangar, duradgor, zargar va boshqalar. Bular eski zamon hunarlari.

Hozir bizga ma'lum bo'lgan kasb-hunarlarni sanab o'tish mumkin emas, chunki ular juda ko'p. Faqat o'zingiz yashab turgan oilangiz iste'molidagi buyumlarga bir nazar solsangiz, hisobsiz hunar mahsulidan kichik bir zarrasi ko'rinadi: elektr, radio, televizor, kir yuvish mashinasi, changyutgich, pianino, kompyuter, mobil telefoni, mebellar va hokazo. Siz bu narsalarni ko'rasiz, ulardan foydalanasiz, lekin ularni kim qanday qilib yaratganini o'ylamaysiz...



7-topshiriq. Ota-ona va farzand burchlarini jadvalga tushiring va davom ettiring.

Farzandini tarbiyalab voyaga yetkazish; ota-onani hurmat qilish; ularga ta'lim berish; ota-onaning iltimoslarini qondirish; ularni yoshlikdan mehnat qilishga o'rgatish; ota-onasining sog'lig'ini muntazam nazorat qilish; farzandiga to'g'ri yo'l ko'rsatish; ularga kasb-hunar sirlarini o'rgatish; farzandining sog'lom o'sishi uchun qayg'urish; ularning gapini ikki qilmaslik; ularni uy-joyli qilish, uylantirish (turmushga berish)...

Farzandning burchi yana nimalardan iborat? Qani, jadvalni to'ldiring-chi!

| Ota-onaning burchi | Farzandning burchi |
|--------------------|--------------------|
| | |
| | |



8-topshiriq. Matni o'qing va munosabat bildiring.

MEHNAT BILAN TOPILGAN PUL

(Rivoyat)

Bir kishining ulg'ayib ham bir ishning boshini tutmagan erka o'g'li bor ekan. U boshi yostiqqa yetganida so'nggi tilagini izhor etibdi:

– O'g'limning mehnat qilib pul topganini ko'rsam, armonsiz ko'z yumardim.

Bu gapni eshitgan onasi erkatoyni chetga chaqirib, cho'ntagiga pul solibdi.

– Boraqol, o'g'lim, ko'chada o'rtoqlaring bilan o'yna-da, kech kirgach, otangga o'zim ishlab topdim, deb shu pullarni keltirib ber.

O'g'il onasi aytganday qilibdi. Otasi esa pulni olibdi-yu, yuziga ham qaramay, yonib turgan o'choqqa otibdi.

O'g'li indamay kulganicha chiqib ketibdi.

Ertasiga ham shu hol takrorlanibdi.

Uchinchi kuni ona debdi:

– Otang aldaganimizni sezdi, bolam. Endi o'zing ishlab pul topib kelmasang bo'lmaydi.

O'g'li kun bo'yi birovlarning eshigida suv tashib, o'tin yorib, arzimagan uch-to'rt tanga ishlabdi. Otasining qo'liga olib kelib berib:

– Mana, ota, buni o'zim ishlab topdim, – desa-da, chol pulning yuziga qaramay yana o'choqqa otibdi.

– Hoy, nima qilyapsiz?! Axir, men bu pulni topish uchun kun bo'yi eshakday ishladim-a! – deb o'g'il shosha-pisha qo'lini yonib turgan olovga tiqib, pullarni olibdi. Ota mamnun jilmayib debdi:

– Ana endi bu pulni o'zing ishlab topganingga ishondim, bolam.



“Farzandlik burchim” mavzusida fikringizni yozma bayon qiling.

1-DARS

14-MAVZU. MEHMON AZIZ (Miqdor holi)



1-topshiriq. Munosabat bildiring.

Mehmon aziz

Muin ibn Zoyid ismli hokimning dushmanlaridan uch yuz kishini asir qilib, uning huzuriga keltirdilar. Muin ibn Zoyid ularni qatl qilishga buyurdi. Asirlar orasida bir yosh bola ham bor edi. Bola o'rnidan turib:

– Ey hokim, men tashnaman, bir piyola suv bering, tashna holda o'lib ketmay, – dedi. Muin suv berishni buyurdi. Bola piyolani qo'lga olib aytdi:

– Hamma asirlar tashnadirlar, men suvni ichib, ularga bermasam muruvvatdan bo'lmas, bersam, o'zim tashna holda qolaman. Albatta, hammamizni o'ldirasiz. Marhamat qilib, buyuring, hamma asirlarga suv bersinlar, tashna holda o'lmaylik.

Muinning buyrug'i bilan hamma asirlarga suv berdilar. Ular suvlarini ichib bo'lganlaridan keyin bola o'rnidan turib:

– Ey hokim, suvingizni ichish bilan hammamiz mehmoningiz bo'ldik, mehmonni o'ldirish fazl-u karam ahlining rasmi emasdir, – dedi...

Savollar:

1. Ayting-chi, Muin ibn Zoyid qanday qaror qildi?
A) Asirlarni qatl qildi.
B) Asirlarni mehmon qildi.
C) Asirlarni ozod qildi.
2. Siz shunday vaziyatga tushib qolsangiz nima qilar edingiz?



Bilib oling! Miqdor holi ish-harakatning miqdorini va darajasini bildirib *qancha?*, *nechta?*, *qay darajada?*, *nechalab?*, *necha marta?* kabi so'roqlarga javob bo'ladi. Masalan: Oz-oz o'rganib dono bo'lur. Ko'p o'qigan ko'p biladi.



1-mashq. Ajratib ko'rsatilgan hollarni quyidagi jadvalga savollari bilan yozing.

1. Men juda ko'p qayg'urdim. 2. O'n marta eshitgandan, bir marta

ko'rgan afzal. 3. Siz **qancha** terdingiz. 4. Bular **qop-qop** terib qo'yishdi. 5. Shu gapni **besh marta** takrorladi. 6. Nodonga **yuz** aytsang ham, befoyda.

| Juda ko'p | Qancha |
|-----------|--------|
| | |

 **2-mashq.** Namunadagi hollarni joy-joyiga qo'yib gaplarni ko'chiring.

Nuqtalar o'rniga qo'yish uchun so'zlar: *sal, duv-duv, ming marta, oz-oz, gala-gala, bir marta, katta, qatra-qatra.*

1. ___ - ___ o'rganib dono bo'lur, ___ - ___ yig'ilib daryo bo'lur.
2. Botir ___ o'ladi, qo'rqqoq ___.
3. Eshik ___ ochildi.
4. Atrofdan ___ - ___ chumchuqlar chirqillashdi.
5. Shaharda juda ___ o'zgarishlar bo'libdi.
6. Daraxt barglari ___ - ___ to'kildi.

 **2-topshiriq.** Dialogni o'qing va shu mazmunda suhbatni davom ettiring.

1. Kechirasiz, menga yaqinroq joydagi mehmonxonani aytib berolmaysizmi?
2. Siz qaysi mehmonxonaga joylashmoqchisiz?
3. Menga shahar markaziga yaqinroq joydagi mehmonxonaga kerak. Iltimos, meni "HILTON" mehmonxonasiga olib boring.

 **3-topshiriq.** O'qing va topshiriqlarni bajaring.

A. Eshik ochilib, uyingizga mehmon kirib keldi. Sizning qanday inson ekanligingiz, aql-farosatingiz mana shu mehmon kelganda bilinadi. Mehmonlar har xil bo'ladi:

Chaqirilgan – kutilgan, taklif etilmagan – kutilmagan, bir-ikki soatga kelib ketadigan, bir-ikki kun qolib ketadigan, yosh-u qari, yaqinroq va uzoqroq.

B. Siznikiga mehmon keldi, ularni qanday kutib olasiz? Shunga ko'ra berilgan jadvalni to'ldiring.

| Chaqirilgan – kutilgan | Taklif etilmagan – kutilmagan | 1–2 kun qolib ketadigan |
|------------------------|-------------------------------|-------------------------|
| | | |
| | | |



4-topshiriq. Matnga qo‘shimchalar kiritib so‘zlab bering.

Kutilmagan mehmon

Imkon qadar, chaqirilmagan joyga bormang. Biror joyga kutilmaganda borishga to‘g‘ri kelib qolsa, uzr so‘rab, bir necha daqiqaga kelganingizni ma‘lum qiling.

Agar siznikiga kutilmaganda mehmon kelib qolsa, uni xushmuomalalik bilan kutib olib, ichkariga taklif qiling. Mehmonni bir piyola choyga taklif etib, dasturxonga qand-qurs, shirinlik va pishiriqlar qo‘ying. Dasturxonga issiq ovqatlar tortish unchalik shart emas. Kutilmagan mehmonning uzoq vaqt qolib ketishi odobdan emas.

Savol: Siznikiga kutilmaganda mehmon kelib qoldi. Tayyorgarlik ko‘ril-magan. Mehmonni qanday kutib olasiz?



“Agar men mehmon kutsam...” nimalar qilgan bo‘lar edingiz? Fikringizni yozma bayon qiling.

2-DARS



5-topshiriq. Matndagi savollarga javob bering.

Biznikiga mehmon kelishini eshitib uydagilar bilan birga rosa tayyorgarlik ko‘rdik. Xonalarni tartibga keltirdik. Bozordan sarxil mevalar olib keldik. Onam turli taniq taomlar pishirdilar. Kechga yaqin mehmonimiz keldilar. Dasturxonni to‘ldirib tashladik. Televizorni qo‘yib qo‘ydik. Yaxshi ko‘rsatuv boshlandi. Dadam ko‘rsatuvni qiziqib ko‘ra boshladilar. Onam oshxonada telegramm orqali dugonalari bilan muloqotga kirishdilar. Men darslarimni bahona qilib xonamga chiqib ketdim.

Hech qancha vaqt o‘tmay, mehmonimiz hamma bilan xayrlashib chiqib ketdi. Qarasak, mehmon dasturxondagi hech narsaga qo‘l urmabdi. Biz mehmonni yaxshi kutib olish uchun rosa harakat qilgan edik. Qattiq xafa bo‘ldik.

Savollar:

1. Uy egalari mehmonga qanday munosabatda bo'lishdi?
2. Nima uchun mehmon barvaqt ketib qoldi?
3. Mezbonlar nima uchun xafa bo'lishdi?
4. Aslida, kim xafa bo'lgan edi? Nima uchun?
5. Shu mehmonning o'rnida siz bo'lsangiz nima qillar edingiz?

 **3-mashq.** Ajratib ko'rsatilgan miqdor hollariga savol bering. Quyidagi jadvalni to'ldiring.

1. Vatan to'g'risida **ko'p** yozilgan. 2. **Qancha ko'p** o'qisang, biliming **shuncha ko'p** bo'ladi. 3. **Kam** de, **oz** ye – **ko'p** yashaysan. 4. Men **o'ylagan darajada** qilisharmikan?

| Ko'p | Nechta? |
|------|---------|
| | |

 **4-mashq.** Savollarga javob yozing.

1. Siz ertaga mehmonga borasizmi? _____ .
2. Siz bugun qayerda bo'lasiz? _____ .
3. Siz qishloqda yashaysizmi, shahardami? _____ .
4. Shaharda tez-tez bo'lasizmi? _____ .
5. Ovqatni juda oz yedingiz, sizga taom yoqmadimi? _____ .
6. Yana biroz o'tiring, nega shoshyapsiz? _____ .

 **6-topshiriq.** Mehmon kutishdagi holatlarni ikki guruhga ajrating.

Kutilmagan mehmonni uyga kiritmay, eshikdan kuzatiladi. Oldindan chaqirilgan mehmon uchun tayyorgarlik ko'riladi. Uylarni tozalab, mehmon uchun joy tayyorlanadi. Mehmonga dasturxon yozilmaydi. Taniq taomlar tayyorlash shart emas. Mehmonni ochiq chehra bilan kutib olinadi. Katta yoshdagi mehmon uyning to'riga o'tkaziladi. Mehmon kelganda oilaviy janjallarga barham beriladi. Mehmon ketayotganda kuzatib qo'yilmaydi.

1. **Mumkin:** _____

2. **Mumkin emas:** _____

Tavoze qilmoq

Mehmonni xushmuomalalik bilan kutib olish, mulozamatning samimiyligi, iltifot o'rtada o'zaro hurmat, mehr uyg'onishiga sabab bo'ladi. Mulozamatning samimiyligi uy egalarining xatti-harakati, yuz-ko'zlari, imo-ishoralaridan shundoqqina ko'rinib turadi. Mehmonga "Assalому alaykum", "Xush kelibsiz", "Qadamingizga hasanot", "Xush ko'rdik", "Marhamat qiling", "Labbay", "Jonim bilan", "Bosh ustiga", "Xo'p bo'ladi" kabi so'z va iboralarni qo'llash orqali tavoze qilinadi.

Hurmatga hurmat bilan javob qaytarish xalqimizga xos odat. "Rahmat", "Tashakkur", "Hormang", "Salomat bo'ling", "Qo'sha qaring", "Kam bo'lmang", "Ko'p yashang", "Farzandlaringizning rohatini ko'ring", "Orzu-umidlaringiz ro'yobga chiqsin" kabi yaxshi istaklar bildiriladi.



7-topshiriq. Muomala odobiga rioya qilgan holda do'stingiz bilan suhbatga kirishing.



8-topshiriq. Matnga munosabat bildiring.

Xalqimiz qadim zamonlardayoq "Mehmon – otangday ulug'" degan naqlga ko'ra eshikdan kelgan odamni hurmat-ehtirom bilan kutib olib, izzatini joyiga qo'yib, kuzatib qo'yishgan.

Bizda mehmon hatto g'arazli maqsadda, yurtga, qabila yo oilaga yomon niyat, dushmanlik maqsadi bilan kelgan bo'lsa ham, mezbon buni sezsa, yaxshi bilsa-da, mehmondorchilik odatiga zid ish qilinmagan. Albatta, mehmon sharafiga, uning qutlug' poyqadamiga atab qo'y so'yilgan, to'kin dasturxon bezatilgan. Chunki bu nafaqat o'sha oila, balki qabila, qishloq, millatning sha'ni sanalgan. "Mehmon oz o'tirar, ko'p ko'rar" deb, xonadonni tartibga keltirib qo'yilgan.

O'zbek dasturxonida mehmondorchilik eng obro'li milliy taom – palov iste'moli bilan xotimalanadi. Ana shundan keyin dasturxon haqiga fotiha o'qilib, izzatli mehmon bilan xayrlashuv oldidan, unga chopon, belbog', do'ppi kiygiziladi. ("O'zbek udumlaridan")



9-topshiriq. Matnda berilgan savollar asosida o'zaro bahslashing.

MEHMONDO'STLIK

Qadimda bir odamning mashhur oti bo'larkan. U ko'pkarilarda ham, poygalarda ham hamisha marraga birinchi bo'lib yetib kelar ekan. Bu otning ishqibozlari tobora ko'payib boribdi. Kimdir falon miqdorda tilla beraman, otingni menga sot, desa, yana boshqasi, bir otar qo'y beraman, bir uyur yilqi hadya qilaman, otingni almashtir, debdi, ammo u unamabdi. "Uyimni sotsam sotamanki, otimni so'ramanglar, meni tinch qo'yinglar", – debdi.

Xushxabarning qanoti bor, deydilar. Bu xabar podshohlikka ham yetib boribdi. Podshohning ham bu uchqur otga ishq tushibdi. To'rt-besh navkar va mulozimlarini olib, o'sha qishloqqa ravona bo'libdi. Uyini topib, darvozani taqillatishibdi.

Ot egasi darvozani ochib qarasa, eshigining oldida podshohi olam turgan emish. Ularni darrov uyga chorlab, ot-ulovlarini bog'labdi. Mehmonlarning oldiga noz-ne'matlarni to'kib solibdi.

Oradan uch kun o'tgandan so'ng, mezbon mehmonlardan so'rabdi:

– Yo'l bo'lsin, hazratim?

Podshoh bu insonning mehmondo'stligidan xursand bo'lib, debdi:

– Ey mezbon, mana uch kundirki uyingizdamiz. Sizdan behad minnatdormiz. Faqat sizga bir gapimiz bor. El orasida dong taratgan otingiz endilikda podshohlikning otxonasini bezatib tursa, degan niyat bilan keldik.

Shunda ot egasi podshohga ta'zim qilib, debdi:

– Hazratim, sizday adolatparvar podshoh uchun nafaqat bitta, o'nta yoki yuzta otimni, hatto jonimni ham berishga tayyorman. Kambag'alchilik qursin. Uch kundan buyon tamaddi qilayotgan taomingiz aynan o'sha otning go'shtidandir...

Ayting-chi: mezbon to'g'ri ish qildimi? Siz uning o'rnida bo'lsangiz nima qilar edingiz?



Bir-ikki kun qolib ketadigan joyga bordingiz. Qolishni istadingiz. Vaziyatdan qanday chiqasiz? 3 ta sababini ko'rsating.

1-DARS
**15-MAVZU. TANSIQ TAOMLAR
(Sabab holi)**

1-topshiriq. Eslab qoling va topshiriqlarni bajaring.
Dunyo mamlakatlarning eng tansiq taomlari

Dunyoning turli mamlakatlarida har xil an'analar, milliy udumlar va o'ziga xos ajralib turuvchi jihatlar mavjud. E'tiboringizga dunyoning turli davlatlaridagi milliy oshxonalarining o'ziga xos jihatlarini havola etamiz.

Yaponiyaning asosiy taomi «Sushi» degan qarashlarga qarshi o'laroq, bu yurtda asosiy tansiq taom **katsudondir**. Yaponiyaga tashrif buyurgan har bir sayyoh, albatta, katsudonni tatib ko'rish kerak.

Angliyaning tansiq taomlaridan biri – **rostbif**. Lahm mol go'shtidan tayyorlanadigan bu taom ham issiq va yaxna tarzda yupqa kesilgan holda dasturxonga tortiladi.

Hindistonning asosiy tansiq taomini aniqlash juda qiyin. Chunki bu mamlakatning hududlari ko'p bo'lib, har birining o'z an'analari bor. Ammo Hindistonning mumtoz milliy taomi **tandir jo'ja** hisoblanadi. Jo'ja go'shti o'rta bo'laklarga bo'linib, har biri ziravorlar qo'shilgan qatqida marinadlanib, mahalliy tandirda pishiriladi va guruch bilan tortiq etiladi.


2-topshiriq. Yuqoridagi matn asosida 5 daqiqada quyidagi jadvalni to'ldiring.

| Mamlakatlar nomi | Taomning nomi |
|------------------|---------------|
| Yaponiya | |
| | |



Bilib oling! Sabab holi ish-harakatning bajarilish sababini bildirib, *nima sababdan?, nima sababli?, nima uchun?, nimaga?, nega?* kabi so'roqlarga javob bo'ladi. Masalan: *Bobur noiloj ko'ndi. Dushman chorasizlikdan taslim bo'ldi.*


1-mashq. Berilgan sabab hollariga savol bering. Nuqtalar o'rniga mos sabab hollarini qo'yib gaplarni yozing.

Nuqtalar o'rniga qo'yish uchun so'zlar: *quvonganidan, yaxshi o'qigani uchun, o'qimagani uchun, yaxshi tayyorlagani uchun, tinchlik tufayli, noiloj.*

1. Do'sti _____ ko'ndi.
2. Salima opa _____ hech gapira olmas edi.
3. U _____ bilmadi.
4. _____ yurt obod.
5. _____ u mukofotlandi.
6. Salima darsni _____ maqtovga sazovor bo'ldi.

Ovqatlanish madaniyati

Dasturxon atrofida ovqatlanish va suhbatlashish oila a'zolarini bir-birlariga yaqinlashtiradi. Ayniqsa, bu bolalar uchun zarur, ular bunda oila tartiblariga rioya qilib, o'zini qanday tutishni o'rganadilar. Dasturxon atrofida quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

- taom tortilgach, avval kattalarning taomga qo'l uzatishini kutib turish;
- taomni tartib bilan yeyish;
- og'zidagi ovqatni chaynab turib gapirmaslik;
- issiq ovqat bilan shirinlikni aralashtirmaslik;
- dasturxonga tortilgan salat yoki sabzavotlarni maxsus sanchqi yordamida oldidagi likopchaga solish;
- ovqatni dasturxonga to'kib yemaslik;
- dasturxon chetini, salftkani o'ynamaslik kerak.



3-topshiriq. Quyidagi savollar asosida o'zaro bahslashing.

- Ovqatlanish madaniyatiga yana nimalar kiradi?
- Sizni mehmonga taklif qilishdi. Dasturxon atrofida o'zingizni qanday tutasiz?



4-topshiriq. Matni o'qing va davom ettiring.

Qiziqarli ma'lumotlar

Ingliz bo'g'irsog'ining qanday atalishni bilasizmi? Nima uchun tabaka-jo'janing nomi aynan shunday? Samolyotdagi taomlar yerdagi taomlardan boshqacharoq ekani sizga ham sezilganmi?

Napoleon qo'shinlari Afrikada bo'lgan paytda har kuni bir xil taom – tovuq go'shtini iste'mol qilishlariga to'g'ri kelgan, chunki boshqa turdagi go'shtlar mutlaqo tamom bo'lgan edi. Bir xildagi taom sarkardaning ham shu darajada joniga tekkan ediki, shunda u agar yangi biror taom tayyorlanmasa, oshpazni o'ldirishini aytib qo'rqitgan. Bechora oshpaz aynan shu masalliqlardan yangi taomni o'ylab topishga qaror qildi.

Taomga tovuq go'shti juda katta mahorat va ustalik bilan yashirilgan ediki, Napoleon tanovul uchun qanday taom berilganini tushunmadi ham.

Zero, Napoleonning oshpazi ham vaziyatdan aynan shunday bilim va uddaburonlik bilan chiqib keta olgan.

Tabaka jo'jasi – gruzin oshxonasiga mansub bo'lgan juda yeyishli taom sanaladi. Aslida taomning nomi “tapaka jo'jasi”. Tapa esa shu taomni tayyorlash uchun foydalaniladigan qopqoqli tovaning atalishidir.

Angliyada bo'g'irsoq to'g'risida alohida ertak bor. Faqat unda buva bilan buvisidan emas, bolakaydan qochib qolgan Jonni-ponchik haqida hikoya qilinadi. Jonnini dastlab quyvon emas, ishchilar, keyin esa yer qazuvchi ishchilar yeb qo'ymoqchi bo'lishadi.

Ko'pchilikning ta'kidlashicha, samolyotda iste'mol qilingan oddiy taom ta'mi bo'yicha odatdagi taomlardan farq qiladi. Buning sababi dvigatellarning shovqinidadir. Shovqinning baland darajasi bilan taomning qisirlashi kamroq, shirinligi va tuzliligi pastroqday tuyiladi.

Olimlar oxirgi ming yillik davomida “Sirli kecha bazmi” mavzusidagi suratlarning bir nechtasini sinchkovlik bilan tadqiq etdilar. Natijada shunday xulosaga kelishdiki, odamlar yildan yilga ko'proq taom iste'mol qilib borishmoqda. Ushbu ma'lumot havoriylar gavdalari va idishlardagi taom miqdorining nisbati tahlil qilinganidan keyin aniqlandi. 1000 yil ichida asosiy taom miqdori 70, non 23, likoplar ko'pligi 23 foizga oshgan. Bu o'zgarishlar sekin-asta va bilinmagan holda yuz berib bormoqda.



O'zbek milliy taomlarining ro'yxatini tuzing. Ulardan birining tayyorlanishi haqida so'zlab bering.

2-DARS



5-topshiriq. Yana qanday antiqa taomlar haqida eshitgansiz? Munosabat bildiring.

Putin Kanadada juda ham keng tarqalgan taomlardan biri. Bu taom ko'proq tez tayyorlanadigan taomlar qatoriga kiradi.

Italiya oshxonasi turli xil taomlar assortimentlari bilan dunyoga mashhur. Ammo italiyaliklarning o'zlari **pitsani** asosiy tansiq taom deb hisoblaydilar.

Belgiyada asosiy tansiq taom **kartoshkali midiyalardir**. Bu davlatning har bir xonadonida midiyalarni bir necha usullarda pishirish sirlarini bilishadi.

Ispaniyaning tansiq taomi **xamondir**. Aynan "**Xamon**" barcha sayyohlarga ushbu yurtning eng tansiq taomi sifatida yaxshi tanish.

Feyjoadaning yurti bu Braziliya bo'lib, loviya hamda go'shtdan tayyorlanadi va pishirilgan guruch yoki karam bilan dasturxonga tortiq etiladi. Braziliyada ushbu taom tayyorlanganda butun oila dasturxon atrofiga yig'iladilar.



2-mashq. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga savol bering. O'zi bog'langan so'z bilan yozing.

1. Ertalab atayin **sizni izlab kelgan** edim. _____
2. Bugun **jo'rttaga** qilganday yomg'ir ham tinmadi. _____
3. Oling, **ataylab** siz uchun pishirdim, onajon. _____
4. **Quvvatsizligidan** tez charchadi. _____
5. **Arzimagan narsa uchun** janjal ko'tarardi. _____



3-mashq. O'qing. Gaplarda holning qaysi turi qo'llanganini so'rog'i bilan yozing.

1. Yozning issiq bir kunida qo'zi bordi suv ichgani. _____
2. Uyalganidan qizarib ketdi. _____
3. Nozima buvisining hikoyasini diqqat bilan tingladi. _____
4. Kechqurun akamni kutib olamiz. _____
5. Yuz marta eshitgandan, bir marta ko'rgan yaxshi. _____
6. Tortishuv yarim kechagacha davom etdi. _____



6-topshiriq. O'qing va berilgan so'zlardan foydalanib suhbatni davom ettiring.

– Iltimos, menga shaharda taomlari bilan mashhur bo'lgan oshxonalarni ko'rsatsangiz.

– Kechirasiz, ko'proq qanday taomlarni xush ko'rasiz?

– O'zbek milliy taomlari yoqadi.

– Yaxshi. Unda men sizga milliy taomlar oshxonasini ko'rsataman.

Suhbatni to'ldirish uchun so'zlar: *qayerda, aytib qo'ying, transport, tushib qolmoq, qaysi bekatda, necha daqiqqa, rahmat, salomat bo'ling.*



7-topshiriq. Bilib oling va rioya qiling.

Mehmonga borganda qanday ovqatlanish kerak? Mehmon qanchalik odobli ekanligini o'zining xatti-harakatlari, yurish-turishidagi eng kichik jihatlari bilan sezdirib qo'yishi mumkin.

Bilasizmi, ovqat yeganda kishining o'ziga sezilmaydigan xunuk odatlar uchrab turadi, masalan, “chapillatib” chaynash, “xo'rillatib” ichish, og'zidagi ovqati bilan gapirish, qoshiq va sanchqilarni idishga “sharaqlatib” urish, yegulikning kattaroq bo'laklariga qo'l cho'zish, tishlangan yegulikni oxirigacha yemay qoldirib ketish, o'z oldiga har xil ovqatlarni keragidan ortiq to'plab olish, ovqatlanishda boshqalarga mutlaqo e'tibor bermay yeyaverish, tishkovlagich bilan bemalol tishini kovlash kabilar shular jumlasidandir. Shuningdek, suyuq ovqatlarni kosaning o'zidan ho'plab ichish, sho'rvaga non to'g'rash va non bo'laklarini ikki barmoq bilan ilib yeyish, idish bo'shagach, uni barmoq bilan yalash ham ovqatlanishdagi odobsizlik sanaladi. Bu xil odatlar odamlarning o'ziga bilinmasa-da, atrofdagilarning g'ashiga tegishi mumkin.

Shunday ekan, mehmonga borganda ham, jamoat joylarida ham, o'z uyingizda ham qanday ovqatlanishingizni bir tekshirib ko'ring.

Savol: Uyda, mehmonda yoki jamoat joyida ovqatlanayotganingizda sherigingiz yuqoridagi holatlarga yo'l qo'ydi. Shunda siz nima qilasiz?



Ovqat yeyishdagi xunuk odatlarga qo'shimcha misollar keltiring.

1-DARS

16-MAVZU. SALOMATLIK (Maqsad holi)



1-topshiriq. Tinglang. Eslab qoling. Savollarga javob bering.

Sinodagi aql va jasorat

Abu Ali ibn Sino buyuk olim, jahon amaliy tibbiyotining asoschisi hisoblanadi. Olimning ota-onasi aslzoda tabaqaga mansub oiladan bo'lishgan. Ibn Sino barcha xastaliklarning, ayniqsa, odamlarning o'limiga sabab bo'layotgan yuqumli kasalliklarning davosini izlagan. Ibn Sino juda ko'p kasalliklar davosini o'simlik va hayvonot dunyosidan topgan. Ayrim o'lat va surunkali xastaliklarga davo topish yo'lida tinimsiz mehnat qilgan. Bu borada unga tabiatning o'zi yordam bergan. Ibn Sino ilmiy izlanishlari bois, Pasterdan 700 yil oldin ayrim kasalliklarning ko'zga ko'rinmas jonivor (mikrob)lar orqali yuqishini ma'lum qilgan. Amaliy izlanishlar nati-jasida ko'richakni jarrohlik yo'li bilan davolash mumkinligini bilib olgan. Amaliy asoslarga tayangan holda Buxoro amirini jarrohlik amaliyoti bilan davolagan. Fan nomiga aylangan "meditsina" termini aslida "madadi Sino" atamasidan kelib chiqqan, degan taxmin bor.



2-topshiriq. Savollarga javob bering.

1. Abu Ali ibn Sino qanday tibbiyotning asoschisi hisoblanadi?
2. Ibn Sinoning aqliy qobiliyatini siz qanday baholaysiz?
3. Ibn Sino kasalliklarning davosini nimalardan topgan?
4. Ibn Sino mikrobn qanday aniqlagan?
5. Ibn Sino tibbiyotning qaysi turini amalda sinab ko'rgan?



Bilib oling! Maqsad holi ish-harakatning bajarilish maqsadini bildirib, *nima maqsadda?*, *nima uchun?*, *nima qilgani?*, *nega?* kabi so'roqlariga javob bo'ladi. Masalan: *Ular atayin kech kelishdi. Maqsud ataylab voz kechdi.*



1-mashq. Berilgan maqsad hollariga savol bering. Nuqtalar o'rniga mos maqsad hollarini qo'yib gaplarni yozing.

Nuqtalar o'rniga qo'yish uchun so'zlar: *o'qiyman deb, o'qish uchun, ushalsin deb, umid bilan, atayin, dam olishga, gaplashish maqsadida.*

1. Men gapirmadim.
2. U keldi.
3. keldi.
4. Gulnor opa bafurja keldi.
5. O'quvchilar dala shiyponiga kelishdi.
6. Hammamiz mehnat qildik, rohatini ham ko'raylik.
7. Hamma orzularimiz birga, chin yurakdan intildik.



2-mashq. Berilgan gaplardagi hollarning turini ko'rsating.

1. Bobomlarni ko'rgani ataylab kelgan edim. _____
2. Dars tayyorlash uchun biznikiga yig'ildik. _____
3. Mehmonlar kuchli yomg'ir tufayli kechikishdi. _____
4. Mehmonlar ertaga Samarqandga borishadi. _____
5. Bolakay qo'rqqanidan yig'lab yubordi. _____
6. Nigora uyalganidan gapira olmadi. _____
7. Tarixiy joylarni tomosha qilish uchun Xivaga jo'nadik. _____



3-topshiriq. Matnga qo'shimchalar kiriting va shu asosda o'zaro suhbatlashing.

Salomatlik va uzoq umr ko'rishning asosiy talabi quyidagi uch omilga rioya qilish hisoblanadi. Buni buyuk alloma Ibn Sino ham o'z asarlarida eslatib o'tgan: jismoniy mashg'ulotlar bilan shug'ullanish, ovqat va uyquni me'yorida ushlashdir.

Ilgarilari iqtisodiyotning turli sohalarida jismoniy mehnat 90 foizdan ziyodni tashkil etgan bo'lsa, XXI asrga kelib ushbu ko'rsatkich ko'plab davlatlarda deyarli bir foizgacha qisqarib ketdi. Biz ish joyida bo'lib turib, faqat borayapmiz, tugmachalarni bosish bilan kifoyalanamiz, qolganini robotlar va mexanizmlarning o'zi qilyapti, kerakli manzilga avtomobilda yetib olyapmiz, uyga kelib, qulay o'rindiqqa joylashib olamiz. Zamonaviy odam hatto idish-tovoqni ham o'zi yuvmayapti. Uning uchun bu ishni idish yuvuvchi mashina bajaryapti. Xullas, umuman, jismoniy mashg'ulotlarsiz turmush tarzi. Axir hayot, bu – harakat emasmi?! Usiz esa inson organizmi erta qarishi ham ayni haqiqat-ku!..

 **4-topshiriq. Savollarga xolislik bilan javob bering.**

1. Bir kunlik faoliyatingizni hisoblab ko'ring-chi, uydagi mehnatning qancha foizini texnika va qancha foizini siz bajarasiz?
2. Siz Ibn Sino eslatib o'tgan qoidalarga qay darajada rioya qilasiz?



Salomatlik haqidagi maqollardan 5 tasini yozing va mazmunini tushuntirib bering.

2-DARS



5-topshiriq. Matnning mazmunini so'zlab bering. Ajratib ko'rsatilgan gaplarning ma'nosini tushuntiring. Matnga savollar tuzing.

IBN SINO SHOGIRDLARI

(Rivoyat)

Tabiblarning tabibi, ulug' hakim Ibn Sino kunlardan bir kuni qattiq og'rib, ko'rpa-to'shak qilib yotib qolibdi. Ibn Sinoning shogirdlari, eng yaqin do'st-birodarlari yig'ilishibdi. Ular yaxshi so'zlar aytib, ulug' tabibning ko'nglini ko'tarishga, kayfiyatini yaxshilashga harakat qilishsa, shogirdlari ustozlarini dori-darmonlar bilan davolashga kirishibdilar.

Ibn Sino do'st-birodarlariga rahmatlar aytib, shogirdlariga esa shunday debdi:

– Ey shogirdlarim, mening kunim bitgan ko'rinadi. Shu bois meni davolayman deb, behuda harakat qilmanglar. Bordi-yu, kunim bitib, vafot etsam, yig'i-sig'i, oh-voh qilmanglar. Faqat haqimga duo qilib, onda-sonda qabrimni ziyorat qilsanglar, bas. Va yana ustoz olamdan o'tdi, endi tabobat oqsaydi, deb ham qayg'urmanglar. **O'rnimga besh zo'r tabibni qoldirib ketyapman. Shu tabiblarning maslahatlariga o'zlaringiz ham doim amal qilinglar, boshqalarni ham shunga da'vat etinglar,** – debdi.

Ibn Sinoning shogirdlaridan biri:

– Ustoz, siz aytgan tabiblar kimlar? – deb so'rabdi.

Shunda Ibn Sino:

– Men qoldirib ketayotgan zo'r tabiblardan biri – tozalik, ikkinchisi – parhez, uchinchisi – badantarbiya. Va qolgan ikkisi mizoj va kayfiyatdir. Doimo pokiza, ozoda bo'lishlik, ko'ringan narsani, ya'ni ovqatni ko'r-ko'rona

yeyavermaslik, apil-tapil ovqatlanmaslik, ovqatlanishda parhez, me'yorni bilishlik, badan a'zolarini harakatsiz qoldirmaslik, mizojni unutmaslik va nihoyat, kayfiyatni yaxshi tutishga harakat qilish. Mana shu aytganlarimga amal qilinsa, kasallanish u yoqda tursin, bevaqt o'lim ham orqaga chekinadi.



6-topshiriq. Luqmoni Hakimning fikrlarini o'qing va munosabat bildiring.

Barcha lazzatni tatib ko'rdim, ammo salomatlikdan yaxshi lazzatni topmadim. Eng shirin lazzat sog'-salomatlik ekanini angladim.

Ey, o'g'lim! Doimo sog'lom bo'lay desang, quyidagilarga diqqat qil:

1. Kunduzi ko'p uxlama.
2. Kechasi oz uxla.
3. Kechasi ko'p suv ichma.
4. Bo'kkuncha ovqat yema.
5. Och qolmasang dasturxonga o'tirma.
6. Ozigina ovqatga qanoat qil.

Yodingda bo'lsin: ish rezinali koptok, agar uni tushirib yuborsang, yana tepaga sakraydi. Salomatlik va oila bo'lsa, shishali koptok. Agar ularni tushirib yuborsang, ularga albatta, jarohat yetkazasan yoki sin-dirasan.



7-topshiriq. Sog'lom bo'lish uchun yana nimalarga e'tibor berish kerak? Fikringizni yozma bayon qiling.



3-mashq. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarni holning turiga ko'ra jad-valga tushiring.

1. **Qayerda** mehnat intizomi yaxshi bo'lsa, **o'sha yerda** hamma ish **o'z vaqtida** bajariladi.
2. Katta kema **qayoqqa** yursa, kichik kema ham **shu yoqqa** yuradi.
3. **Maktabimizgacha** bor-yo'g'i **o'n daqiqalik** yo'l.
4. **Shahardan** kelgan mehmonlarni **bog'da** sayr qilgani taklif etdik.
5. **Ta'til paytida** biz **tog'larga, oromgohlarga** ketamiz.
6. **Har bahorda** shu bo'lar takror, har bahor ham shunday o'tadi.
7. **Uydan** chiqqanimda havo bulut edi.
8. **Stadiongacha** piyoda ketdik.

9. **Qayerda** intizom buzilsa, ish unumli bo'lmaydi.

10. Tadbir **peashingacha** cho'zildi.

| O'rin holi | Payt holi |
|------------|-----------|
| | |



4-mashq. Berilgan holning turlariga misollar keltiring.

- O'rin holi: _____ .
- Payt holi: _____ .
- Holat holi: _____ .
- Sabab holi: _____ .
- Maqsad holi: _____ .
- Daraja-miqdor holi: _____ .

Gigiyenaga rioya qilish

Shaxsiy gigiyena har bir kishining o'ziga bog'liq bo'lib, bunda quyidagilarga amal qilish kerak:

- aqliy va jismoniy mehnatni to'g'ri yo'lga qo'yish;
- jismoniy tarbiya bilan shug'ullanish;
- vaqtida ovqatlanish;
- miriqib uxlash;
- mehnat va dam olishni to'g'ri uyushtirish;
- avvalo, badanni ozoda saqlashga e'tibor berish;
- qo'lni tez-tez sovunlab yuvib turish;
- tirnoqlarni to'g'ri parvarish qilish;
- kuniga dush qabul qilish;
- yotishdan oldin oyoqni yuvish;
- tishni har kuni ertalab va kechqurun yuvish, ovqatlangandan keyin og'izni chayish;
- ichki kiyimning doimo toza bo'lishi;
- har kuni yoki kunora paypoqlarni almashtirib turish;
- kiyim-kechak, turarjoy, oshxona, ish joyi va boshqalarning toza bo'lishiga e'tibor berish kerak.



8-topshiriq. Matnga munosabat bildiring.

To'g'ri ovqatlanish siri

Tabiiy oziqni tanlang.

Yaxshi hazm qilmasangiz, yaxshi ovqatlanish hisoblanmaydi. Shuning uchun ovqatni yaxshilab chaynang, faqat tinch holatda ovqatlaning.

Ko'p emas, kamroq yeng.

Yetmish foiz oziq mahsulotlari, asosan, suvdan tarkib topgan bo'lishi kerak.

Hujayralarni yemiruvchi – qand, go'sht, baliq, sut mahsulotlari, tuz, choy, kofe va alkogoldan saqlaning.

Ayting-chi, siz yuqoridagi qoidalarga amal qilasizmi?

9-topshiriq. O'zingizni sinab ko'ring.

Savollar:

– Salomatlikni saqlovchi eng yaxshi choralarga nimalar kiradi?

Misollar keltiring.

1. _____
2. _____
3. _____

Berilgan so'roqlar yordamida gaplar tuzing.

Qachon? _____ .

Qachongacha? _____ .

Qachondan beri? _____ .



Kun davomida shaxsiy gigiyenaga qanday amal qilishingizni yozing.

17-MAVZU. ORZUGA ERISHISH (Takrorlash)



1-topshiriq. Matndagi ajratib ko'rsatilgan gaplarga diqqat qiling.

Inson borki, har daqiqada tug'ilgan yangi orzularni ro'yobga chiqarishni istab yashaydi. **Sizdan “Eng katta orzungiz nima?” deb, hech so'rashganmi?** Javob uchun, albatta, biroz to'xtab qolasiz, xayolingizga kelgan birinchi fikrni aytib yubormoqchi bo'lasiz-u, ammo ayta olmaysiz. ... **Qizig'-a, orzuning ham katta-kichigi bo'lar ekan-da.** Orzu qilishlik siz uchun shunchalar muhimki, hatto uning hayotingizdagi o'rnini o'zingiz ham bilmaysiz. Balki, uning ba'zilar uchun hech qanday ahamiyati yo'q, deb hisoblarsiz.

Orzu bu – hoy-u havas emas. U insoniyatning shu bugungi kunga yetib kelishiga sababchi bo'lgan eng mustahkam tirgakdir. **Bir vaqtlar bobomning “Hamma narsa niyatga bog'liq” deganlarini eshitgandim, ammo unda hech nimani tushunmagan edim.** Sekin-asta inson ulg'aya borar ekan, bolalikdagi “katta bo'lish” orzusi o'rniga, “bolalikka qaytish” istagi mavj uradi. Aynan shu orzuni ko'nglimga tukkan holda aytamanki, bu hayot biz uchun eng katta muallimdir, yurtning bag'rida o'tgan har bir kunim esa olayotgan darsim ekan.



2-topshiriq. Quyidagi savollar asosida o'zaro bahs-munozaraga kirishing.

1. Eng katta orzungiz nima?
2. Orzuning ham katta-kichigi bo'ladimi? Farqini ayting.
3. “Hamma narsa niyatlarga bog'liq” deganda nimani tushunasiz? Fikringizni misollar bilan izohlang.



3-topshiriq. Ajratib ko'rsatilgan hollarning turini aniqlang va jadvalni to'ldiring.

1. U ertadan kechgacha bosh ko'tarmay ishladi.
2. Ona **xursandligidan** o'zini qo'yarga joy topolmay qoldi.
3. Amir Temur o'z nevarasi Muhammad Tarag'ayni g'oyat ziyrak va o'tkir zehnlilik bilan **bo'lgani uchun** Ulug'bek deb ataydi.

4. Navoiyning **Hirotda kelganligi haqidagi** xabar butun **shaharga yashindek** tarqaldi.
5. Sultonmurod do'stini **tabassum bilan** kutib oldi.
6. **Kechasi tiniq osmonda** yulduzlar chamani **charaqlab** porlaydi.
7. Odamlar bor, hamisha ezgulikni qilarlar orzu,
Odamlar bor, yovuzlikka bo'larlar ko'zgu.

| Holat holi | O'rin holi | Payt holi | Sabab holi |
|------------|------------|-----------|------------|
| | | | |

 **4-topshiriq. Matni o'qib, savollarga javob yozing.**

Orzu! Inson orzular bilan tirik. Murg'aklik kezlaridan uning qalbida ummon-ummon orzulari va istaklari bo'ladi. Ularga, albatta, erishishni istaydi.

Orzu, nima o'zi u? Inson orzu qilmasdan yashay oladimi? Orzular faqat yaxshilikka xizmat qiladimi? Yoki yovuzlikka hammi? Orzu va istakning qanday farqlari bor? Orzu istakdan ustun turadimi? Siz ham bu savollarga javob axtarib ko'ring, balki orzuingizga bo'lgan ishonchingiz mustahkamlanar.

 **5-topshiriq. Matni o'qing. Shu asosda o'zaro suhbatlashing.**

“Siz katta bo'lganingizda kim bo'lmoqchisiz?” Bu savol, shubhasiz, har bir bolaga beriladi. Bolalarning orzulari juda shirin va sodda. Ammo ular bolalarga muayyan maqsadga erishishga turtki bo'ladi. Maqsadga erishish uchun quyidagilarga amal qilish kerak.

1. Orzu – maqsadning onasi. Hayotiy tajribani qo'lga kiritish uchun oldimizga katta maqsadlarni qo'yishga orzular imkon beradi. Har doim imkonsizday tuyilgan narsalarga erishishga harakat qiling!

2. Orzular kuch beradi. Orzu qilib, hayotiy muhim masalalarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan kuch va ishonchga ega bo'lamiz. Orzularsiz hech qachon o'zgarishni istamagan bo'lardik.

3. Orzular ishonishga yordam beradi. Orzularga berilib ketsak, hamma narsaning ro'yobga chiqishiga ishonishimiz mumkin. Bizning ichimizdagi bu aniq, ishonchli ovoz tovushi eshitiladi, bu bizga hamma narsani amalga oshirish mumkinligini aytadi.

4. Orzular ilhomlantiradi. Ideal kelajagimizni tasavvur qilsak, biz o'zimiz bilmasdan yangi g'oyalar olamiz, imkoniyatlarni ko'rib chiqamiz va variantlarni izlaymiz. Bu bizga ijodkorona fikr yuritishimizga, bir narsaga emas, balki har doim maqsadga yetishga harakat qilish uchun yordam beradi.

5. Orzular jonlarni birlashtiradi. Birgalikda biror narsaga erishish har doim ham osonroq kechadi. Orzularingizni tushunadigan insonni topish kerak. Ishoning, baxtingizni oilangiz va do'stlaringiz bilan baham ko'rish yoqimlidir. Hech qachon orzu qilishdan to'xtamang!

6-topshiriq. O'zingizni sinab ko'ring. Yil davomida o'tilgan mavzular yuzasidan savollar:

Ikkinchi darajali bo'laklarning nomini yozing. _____

Aniqlovchining yana bir turi qanday nomlanadi?

To'ldiruvchi ishtirokida gap tuzing.

1. _____

2. _____

Gapdagi ot-kesimni aniqlang.

Toshkent – O'zbekistonning poytaxti. _____

Milliy taomlarga misollar keltiring.

Suyuq taomlar

Quyuyq taomlar



7-topshiriq. Matndan avval qaratqich-aniqlovchi, so'ngra sifatlovchi-aniqlovchilarni toping.

YOSHLIKNI QADRLANG

Odamzod kelajak bilan – ezgu umidlar va go'zal orzu-havaslar bilan yashaydi, yaxshi kunlarni va osuda damlarni qo'msab, unga intilib yashaydi. Inson orzularining cheki yo'q. U doimo ertangi kuniga umid bilan boqadi. Umid-orzularga erishish esa, eng avvalo, yoshlikning nechog'liq oqilona kechishiga bog'liq. Yoshlik g'oyat bebaho, lekin tez o'tib ketadigan

boylik. Yoshlik inson hayotida eng go'zal, biroq g'oyat mas'uliyatli davr. Tabiatda nima ekilsa, shu olinganidek, yoshlik ham inson taqdiri va kelajagini belgilashda hal qiluvchi davr. Shu bois g'animat yoshligingizni samarali ishlarga sarflang, uni behuda o'tkazmang. Ko'p o'qing, o'rganing. Olgan bilimlaringiz bilan kelajagingizni barpo qilishingizni unutmang.



8-topshiriq. She'rni o'qing va mazmunini so'zlab bering.

ORZU

Zulfiya Nurmonova

Qog'ozga to'kilgan ulkan orzular
Murg'ak yuragimga o't solar edi.
Uchib ketayotgan samolyot bilan
Toshkent tomonlarga yo'l olar edi.

She'rlar yozar edim uzundan uzoq,
Onam tinglar edi jim, o'ychan nigoh.
O'yinqaroq bo'lib, yozmay qo'ysam gar,
"Yozmaysanmi", – derdi, bo'lib dilsiyoh.

Orzularim bilan ulg'aydim, o'sdim,
Omadim poyma-poy izlab yuribdi.
Bugun ulkan hayot ostonasida
Baxtim eshigimni qoqib turibdi.

Biroq yuragimda mehribon og'riq,
Sira to'xtamaydi, ingrar boladek,
Ota makonimning bo'sag'asida
Eshikka suyanib turar bolalik...



"Mening orzum" mavzusida fikringizni yozma bayon qiling.

MUSTAQIL O'QISH UCHUN

O'IKA

Erkin Vohidov

Bog'laringni sayr etganimda,
Sen bor eding qallda, Vatanim.
Bog' husniga she'r bitganimda,
Uni dastlab senga atadim.

Minglab tilda madhingni so'zlar,
Bunda o'sgan har bitta daraxt.
Nur emadi millionlab ko'zlar,
Ko'kdan sening husningga qarab.

Jilmayadi o'zida yo'q shod,
Yangi oy ham ketmay qoshingdan.
Etak-etak olib koinot,
Yulduzlarin sochar boshingdan...

OILA – VATAN TIMSOLI

Agar “Vatanning rasmini chizib bering” desalar, avvalo, nimaning tasvirini qog'ozga tushirgan bo'lardingiz? Buning uchun dastlab o'zimiz bilgan narsalarni ko'z o'ngimizdan o'tkazamiz. Shunda biz uchun eng qadrdon va tushunarli maskan o'zimiz tug'ilib-o'sgan xonadonimiz bo'lib ko'rinadi.

Insonni voyaga yetkazadigan, unga eng go'zal tuyg'ularni singdiradigan, uning ong-u shuurida dastlabki bilim va ko'nikmalarni shakllantiradigan makon oiladir.

Go'dak ko'z ochib dunyoga kelganidan so'ng, avvalo, onasini taniydi hamda uning bag'ridan panoh va rizq topadi. Onaning ko'ksida tinch va osoyishta uxlaydi, orom oladi. Inson oilada o'zini erkin va ozod sezadi. “O'z uyim – o'lan to'shagim” degan maqolimiz aynan shuni nazarda tutib aytilgan.

Dunyoda hamma narsaning asosi bo'lganidek, oilaning ham tayanch ustunlari bo'ladi. Ular – ota bilan ona. Ona – mehr-muhabbat, ezgulik va fidoyilik ramzi. Uni Vatanga qiyoslaymiz. Vatanni ta'riflaganda, avvalo,

“ona-Vatan” deymiz. Ona va Vatan haqidagi taassurotlar bir-biriga o‘xshab ketadi. Vatan ham, ona ham farzandining baxti uchun hech narsani ayamaydi. Shuning uchun ham Vatanimizning bosh maydoni bo‘lgan Mustaqillik maydonida “Baxtiyor ona” haykali o‘rnatilgan.

Onaning allasida Vatan tuyg‘usi bosh mavzudir. Allada “katta bo‘lg‘in”, “el-yurtingga xizmat qilgin”, deb kuylanishi bejiz emas.

(“Vatan tuyg‘usi” kitobidan)

ENG AZIZ NIMA?

(Rivoyat)

Kunlardan bir kuni donolar yig‘ilishib, dunyoda nima aziz ekanligidan bahs-munozara qilibdilar.

– Hayot aziz, – dedi bir donishmand, – hayot bor ekanki, barcha mavjudot bor.

– Non aziz, – debdi ikkinchisi, – agar nondek mo‘tabar noz-ne‘mat bo‘lmasa, hayot ham, tirik mavjudot ham bo‘lmaydi.

Davrada turli-tuman aziz narsalar aytilaveribdi-yu, oxiri eng keksa dono hakim bahsga bunday deb xulosa yasabdi:

– Hayot otli shirin ne‘mat ham, jonli va jonsiz jamiki mavjudot ham, nondek aziz oziqalar ham – hammasi dunyoning yagona aqlli xilqati – Inson uchun yaratilgan. Xulosa shuki, dunyoda Inson aziz, Insondan buyuk va mo‘tabar xilqat yo‘q.

Davradagi donolar keksa hakimning fikrini: “Haq gap, chin gap”, deb tasdiqlabdilar.

Darhaqiqat, olam yaratilib, odamzod paydo bo‘lganidan nafas olib turgan zamonimizgacha Inson aziz ekanligi ta‘kidlab kelinadi.

Xo‘sh, Inson nega aziz?

Birinchidan, odam bolasida aql-zakovat ne‘mati borki, u bilan dunyoni idrok etadi va idora qiladi. Ikkinchidan, mehnati bilan ona-Yerga sayqal berib yashnatadi. Uchinchidan, odam bolasida mehr-muhabbat, rahm-shafqat, himmat-muruvvat, adolat-u oqibat kabi ko‘p yaxshi fazilatlar borki, bular Insonni ulug‘laydi, aziz-u mukarramlik darajasiga ko‘taradi.

Inson e‘zozlangan joyda hayot go‘zallashadi. Insonga qanchalik mehr qo‘yilsa, turmush shunchalik shirin bo‘ladi. Insonga qanchalik mehr-oqibat ko‘rsatilsa, dunyo shunchalik obod-u shodlikka yuzlanadi.

BO'SH VAQT

Barcha mamlakatlar uchun bolaning bo'sh vaqti masalasi muhim muammolardan hisoblanadi. Maktabdan keyingi yarim kunda bolaning nima bilan shug'ullanishi uning taqdirini belgilaydi. Shahardagi mahallalarda, qishloqlarda bola kattalarning e'tiborida bo'ladi. Bu bola kimning farzandi ekanini kattalar bilishadi va undagi nojo'ya harakatni e'tiborsiz qoldirishmaydi. Ko'p qavatli uylarda esa buning aksi. Qo'shnilar bir-birlarini tanishmaydi. Nojo'ya ish qilayotgan bolani tartibga chaqirishmaydi. Shundanmi, qamoqdagi bolalar yashash joylariga ajratilib o'rganilganda mahalla va qishloqqa nisbatan ko'p qavatli uylarda istiqomat qiladiganlari ko'proq ekani aniqlandi.

Bo'sh vaqt masalasini hamma o'zicha hal etadi. Ko'pchilik tarbiyaning bu sohasida asosiy e'tiborni mehnatga qaratish tarafdori. To'g'ri, madaniyat yuksakligi mehnatga bo'lgan muhabbatga bog'lanadi. Donishmand aytmqochi, agar hayot kemasi mehnat langariga suyanmasa, hamma shamollar-u dovullarga dosh berolmaydi. Bu ta'riflarni bilamiz. Ammo bu haqiqatlarni bolalar ongiga qanday singdira olamiz? Shiorlar bilanmi yo aniq harakatlar bilanmi? Bir kishi bolalariga nasihat qilib der ekanki: "Odam maymundan paydo bo'lgan, agar mehnat qilmasalaring, yana maymunga aylanib qolasizlar". Bu nasihatda chuqur ramziy ma'no bor. Bunda odamning jismonan emas, ma'nan maymunga aylanib qolishi nazarda tutilyapti. Diqqat qilaylik, dunyoda tirik jon borki, hammasi harakatda, hammasi mehnat bilan band.

(Tohir Malik. "Alvido, bolalik")

TABIATNI TINGLASH

Yoz tuni... Xuddi yerga yaqin turgandek ko'rinayotgan oy uvada bulutlar orasida tilla qayiqchadek suzib yuribdi. Mayin shamol daraxt barglari bilan o'ynashib, ularni asta shitirlatadi. Ariqdagi suv oy nurida jilolanib, yoqimli shildiraydi. Chigirtkalar bir-biriga gal bermay chirillaydi. Tabiatning jonli orkestri sokin tun simfoniyasini ijro etmoqda... Naqadar orombaxsh kuy va betakror lahzalar... Men mana shu go'zal ohangga quloq tutib, "tabiat jonsiz, insondan boshqa mavjudotga zabon berilmagan", degan gaplar behuda ekanligiga yana bir bor ishonch hosil qilaman.

Aslida musiqa ham, musiqa asboblari ham tabiatdan olinadi. Masalan, tanasi silliq, mag'rur o'sadigan, lekin ichi ilma-teshik qamishni olaylik. Mana shu bo'shliqdan taraladigan ohanglar uning o'zi kabi hazin va dardli. Men shunday mungli nay tovushini eshitganimda yurak-bag'rim o'rtanib, shu qadar hayajonga tushamanki... Darhaqiqat, musiqa oddiy ohang emas, u qalb kechinmalarining ifodachisidir. O'sha kuydagi dard sabab, men bugun musiqa tilini so'zlar orqali tarjima qilish mumkinligiga ishonaman. Tabiat ham, mavjudot ham zabonsiz emas. Ular so'zlashadi, kuylaydi, qaysidir yo'l bilan o'zini hamisha bildirib turadi. Buni bilish uchun tabiatni kuzatish va tinglash lozim, xolos.

(D. Abdusattorova. "Go'zallik izlab")

NON

(Qatra)

Nuriya erinibgina tushlik qilingan idish-tovoqlarni yig'ishtira boshladi. Dasturxonida mayda non bo'laklari-yu uvoqlari qoldi. U dasturxonni yig'ishtirib, gullar ustiga silkitdi. Qotgan-qutgan non bo'laklari-yu uvoqlari duv etib yerga to'kildi. Uzoqlarga tikilib o'y surib o'tirgan Mansur bobo bir unga, bir yerdagi nonga qaradi-yu, sapchib o'rnidan turdi. Kela solib, nonni mayda uvoqlarigacha terib kaftiga soldi, so'ng ko'zlariga surtdi. Keyin Nuriyaga shunday qattiq gapirdiki...

Bobosi unga birinchi marotaba shunday qattiq gapirishi... Nuriyaning quloqlari hech narsani eshitmay qoldi.

U o'ziga kelganida bobosi hamon gapirar, endi juda sekin, past ovozda so'zlardi.

– Bolaginam, chirog'im, nonning uvog'i ham non-ku, axir. Ishqilib, bu to'qlikning ochligini ko'rmanglar.

Keyingi so'zlarini aytayotganda boboning ko'zlaridan yosh oqardi. Nuriya shu tobda juda katta gunoh ish qilganini yurakdan his etdi. U bobosining yig'laganini birinchi marotaba ko'rish edi.

Yillar o'tib, Nuriya ulg'aydi, voyaga yetdi, bobosi so'zlarining ma'nosini endi angladi.

(O. Muzaffarova)

Foydalanilgan adabiyotlar

1. *K. Nazarov, R. Sayfullayeva, M. Ubaydullayeva*. O'zbek tili (ixtisoslik grammatikasi). T., "O'qituvchi", 1993.
2. *I. Egamberdiyev, A. Haydarov*. Donolar pandlari. T., "GLOBAL BOOKS", 2017.
3. *Mirzakalon Ismoiliy*. Inson husni. T., G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1989.
4. *R. Rasulov*. O'zbek tilidagi holat fe'llari va ularning obligator valentliklari. T., "FAN" nashriyoti, 1989.
5. *A. Nurmonov, R. Rasulov*. O'zbek tili jadvallarda. T., "O'qituvchi", 1993.
6. *K. Mahmudov*. Mehmonnoma. T., "Yosh gvardiya" nashriyoti, 1989.
7. *Sh. Sattorov*. Biz g'alaba qozonamiz. T., "Bilim va intellektual salohiyat" nashriyoti, 2018.
8. *Safo Ochil*. Inson ziynati odobdur. T., "O'qituvchi", 1996.
9. *O. To'rayeva, M. Turopova*. Odobnoma. T., "O'qituvchi", 1999.
10. Etiketning oltin kitobi. T., "Yangi asr avlodi", 2013.
11. O'zbek xalq maqollari. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1989.
12. *K. Nazarov, G. Xo'janova*. "O'zbek tili". T., 2003.
13. *X. Muhiddinova*. O'zbek tilidan nazariy tavsiyalar. T., "Abu matbuot konsalt", 2008.

MUNDARIJA

| | |
|--|----|
| 1-mavzu. Vatanparvarlik. (Gap bo‘laklari) | 3 |
| 2-mavzu. Oilam – faxrim. (Bosh bo‘laklar) | 8 |
| 3-mavzu. O‘rganishdan to‘xtamang. (Ega)..... | 12 |
| 4-mavzu. Do‘stlikni qadrlash. (Kesim) | 16 |
| 5-mavzu. Kitobdan olgan saboqlarim. (Fe‘l-kesim va ot-kesim)..... | 22 |
| 6-mavzu. Ilm odobi. (Ega va kesim orasida tirening ishlatilishi) | 28 |
| 7-mavzu. Buyuk kashfiyotlar. (Aniqllovchi)..... | 32 |
| 8-mavzu. Axborot almashish vositalari. (To‘ldiruvchi)..... | 36 |
| 9-mavzu. Dolzarb teledasturlar. (To‘ldiruvchining ifodalanishi)..... | 41 |
| 10-mavzu. Ekologik muammolar. (Hol) | 48 |
| 11-mavzu. Madaniyatli inson. (Holat holi)..... | 53 |
| 12-mavzu. Dunyo mo‘jizalari. (Payt holi)..... | 59 |
| 13-mavzu. Mehnatning qadri. (O‘rin holi) | 64 |
| 14-mavzu. Mehmon aziz. (Miqdor holi) | 69 |
| 15-mavzu. Tansiq taomlar. (Sabab holi) | 75 |
| 16-mavzu. Salomatlik. (Maqsad holi) | 80 |
| 17-mavzu. Orzuga erishish. (Takrorlash)..... | 86 |

**Lafasov Urak Pozilovich, Tolipova Fotima Sa'dulloyevna,
Nuriddinova Dildor Abrorovna, Yo'ldosheva Odina Yormatovna**

O'ZBEK TILI

*Ta'lim rus va qardosh tillarda olib boriladigan umumiy o'rta ta'lim
maktablarining 10-sinf o'quvchilari uchun darslik*

1-nashri

Muharrir *Oydinniso Yo'ldosheva*
Badiiy muharrirlar: *Izzat Yo'ldoshev, Kamoliddin Nurmonov*
Texnik muharrir *Tatyana Xaritonova*
Musahhihlar: *Malohat Ibragimova, Dono To'ychiyeva*
Kompyuterda sahifalovchi *Hilola Sharipova*

Nashriyot litsenziya raqami AI № 290. 04.11.16
2020-yil 28 sentyabrda bosishga ruxsat etildi. Bichimi 70x90^{1/16}.
«Arial» garniturası. Ofset bosma. 7,02 shartli bosma taboq.
5,4 nashr tabog'i. Adadi 93959 nusxa. raqamli buyurtma.

G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etildi.
100128. Toshkent. Shayxontohur tumani, Labzak ko'chasi, 86.

www.gglit.uz info@ gglit.uz